

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI



O`ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanidan tayyorlangan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Guliston – 2018

Obida Fayzullayeva. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti fanidan o'quv-uslubiy majmua. - Гулистон, 2018.

Mazkur o'quv o'quv-uslubiy majmua 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 1 martdagi 107-sonli “Yangi o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmani tavsiya etish to'g'risida”gi buyrug'i asosida “Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining BD 5120100-307-raqamli 2015 yil 07.01 da tasdiqlangan namunaviy dastur asosida shakllantirilgan.

Majmuada XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Har bir mavzu oxirida talabalar tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqlar va nazorat savollari keltirilgan.

Shuningdek, undan ishchi dastur, reyting ishlanmasi, auditoriyada o'tiladigan o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar), mustaqil ravishda o'rganishga tavsiya qilingan mavzular, ulardagi ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan savollar va bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar o'rin olgan bo'lib, tegishli adabiyotlar ro'yxatlari ham mavjud.

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O'quv uslubiy kengashi tomonidan (1- sonli bayonnoma ____2018 yil) ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Umurzoq O'ljaboyev,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Музаффар Маматкулов,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mundarija:

Kirish.....	4
Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi buyicha uslubiy ko'rsatmalar.....	5
Amaliy mashg'ulotlar.....	8
Seminar mashg'ulotlar.....	8
Mustaqil ta'lim bo'yicha materiallar.....	9
Glossariy.....	59
Test savollari.....	61
Ilovalar:	
Fan dasturi.....	89
Ishchi fan dasturi.....	102
Xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda).....	112
Taqdimotlar va multimediya vositalari (elektron shaklda).....	114
O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti fani sillabusi.....	118
Qo'shimcha didaktik materiallar.....	120

KIRISH

«Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti» fani oliy oʻquv yurtlari Oʻzbek filologiyasi mutaxassisligi boʻyicha bakalavr darajasini oluvchilar uchun moʻljallangan.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti XIX-asrning ikkinchi yarmidan XX-asrning 30-yillari oxirigacha boʻlgan davrdagi badiiy ijod namunalarini oʻrganadi.

Mustaqillikkacha Oʻzbek adabiyoti anʼanaviy ikki qismga ajratib oʻrganilgan. Istiqloq tufayli tariximizni haqqoniy baholash imkonini sabab oʻzbek jadid adabiyotini yaxlit va izchil oʻrganishga keng yoʻl ochildi. Koʻp asrlik adabiyotimizning qonuniy merosxoʻri boʻlgan, mustamlakachilikning millat va vatan uchun halokatli oqibatini teran anglab etgan, mohiyatan yangi adabiyotning butun ruhi va mazmunini milliy uygʻonish tashkil qildi. Shu jihatdan jadidchilik Turkistondagi milliy uygʻonishning «qalbi» boʻlsa, jadid adabiyoti uning badiiy koʻzgidir. Bu adabiyot birgina gʻoyaviy-estetik jihatdan emas, badiiy-estetik jihatdan ham keyingi adabiyotimizning eng porloq sahifasi edi. Ayni paytda u juda koʻp jihatlari bilan hozirgi oʻzbek adabiyotining sarchashmasi sifatida ham qadrlidir.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining shakllanishi, taraqqiyot tarixi, mumtoz va qardosh qoʻshni xalqlar adabiyotidan oziqa olishi, yangi mavzular, janrlar, qahramonlar, badiiy tasvir vositalari, poetik obrazlar va nihoyat yangi badiiy tafakkurning inkishofi bugungi milliy mafkura asnosida tahlil qilinadi.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining ayrim buyuk vakillari hayoti va jadidchilik maqomi, mafkurasi va umuminsoniy gʻoyalar bilan sugʻorilgan asarlarini badiiy-estetik tahlil qilish nazarda tutiladi.

Dastur olti qismdan: kirish, maʼruza mavzulari, amaliy mashgʻulotlar mazmuni, seminar mashgʻulotlari, talabalar mustaqil bajaradigan ish topshiriqlari va nihoyat informatsion-metodik taʼminotlardan iborat.

Maʼruza zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga mos ravishda ishlanib, unda mavzuga oid muammolar, oʻquv (darsning) maqsadlari, nazorat savollari, mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan. Maʼruza mavzularini tayyorlashda taʼlimning ilmiyligi yoki taomilga kirgan ilm orqali bilim egallash tamoyili hamda internetdan olingan materiallardan keng istifoda etildi. Har bir maʼruza mavzusidan soʻng adabiyotlar roʻyxati va nazorat savollari berilgan boʻlib, talabalar koʻrsatilgan adabiyotlardan oʻzlarini qiziqitiradigan savollarga javob olishi mumkin. Nazorat savollari asosida u yoki bu masalada bahs yuritish, oʻzining bilim saviyasini oʻzi sinovdan oʻtkazish imkoni yaratiladi.

Amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish tartiblari, undan kutiladigan oʻquv maqsadlari, kerakli jihozlar, materiallar, ishni bajarish uslubiyati keng berilgan.

Majmua soʻngida yakuniy xulosalar, fanda echimini kutayotgan asosiy ilmiy muammolar, informatsion-metodik taʼminotlar keltirilgan.

Muallif majmua haqida fikr-mulohazalarini bildirgan shaxslarga oʻz minnatdorchiligini izhor etadi.

Manzilimiz: 707012. Guliston sh.
4-mavze, universitet,
Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası

MAVZU: XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA IJTIMOIY–SIYOSIY, MADANIY VA ADABIY HAYOT

Reja:

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ijtimoiy–siyosiy va madaniy hayot
2. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda adabiy hayot

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Rossiyaning bosqinchilik siyosati, Qo'qon xonligining tugatilishi, xalq ozodlik harakatlari, matbuotning yo'lga qo'yilishi, bosmaxonalarning ochilishi, yangi o'zbek hajvchiligi, yangi janrlarning kashf etilishi va taraqqiyoti.

1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Rossiyaning Turkistonga bosqinchilik siyosati, shuningdek, istilodan keyingi o'lkadagi ijtimoiy–siyosiy va madaniy o'zgarishlar haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Rossiyaning Turkiston o'lkasiga bo'lgan bosqinchilik siyosati haqida gapiradi.
- 1.2. Xalq ozodlik harakatlarining yuzaga kelishi sabablari hamda ularning maqsadlarini tushuntiradi.
- 1.3. Ruslar tomonidan Turkistonni har jihatdan o'rganishga kirishishning sabablarini izohlaydi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

O'rta Osiyoning chor hukumati tomonidan istilo qilinishi bir hamla bilan amalga oshirilgan qisqa muddatli harbiy-siyosiy harakat bo'lmay, qariyb chorak asrni o'z ichiga olgan va xalq hayotida malum iz qoldirgan murakkab tarixiy hodisadir. Malumki, Qo'qon xonligining g'arbiy chegaralaridagi mudofaa istehkomi hisoblangan Oqmachit qalasining 1853 yilda bosib olinishi bilan boshlangan chor hukumatining istilochilik harakati, asosan oradan 22-23 yillar vaqt o'tganidan so'ng, 1876 yilda bu xonlikning markazi bo'lgan Qo'qon shahrining taslim bo'lishi bilan yakunlandi.

Rossiya Turkistonni bosib olar ekan, unga xom ashyo manbai sifatida qaradi va bosib olgan erlarda mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Chor mustamlakachilari o'lkada harbiy idora usulini – general gubernatorlikni o'rnatdilar. Chorizm siyosati mahalliy xalqni qoloqlik, nodonlikda saqlab turishga Osiyoni o'z sanoati va qishloq xo'jaligining mahsuloti bozoriga aylantirishga, moddiy boyliklarga serob o'lkadan arzon xom ashyo va ishchi kuchi manbai sifatida foydalanishga urinar edi.

Chorizm mahalliy xalqlarga past nazar bilan qarar, ularni kamsitar, mexnatkashlar ongini zaharlab qorong'ulikdan saqlashga harakat kilar edi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomondan bosib olinishi natijasida mahalliy xalq hayoti yanada mushkullashdi, kapitalistlar, sudxo'rlar tomonidan ayovsiz talon–tarojga, haqoratu kamsitishlarga mahkum etildi.

Chor Rossiyasi o'lkani asosiy paxta bazasiga aylantirgan bo'lsa ham, hosil etishtirish uchun hech qanday yordam bermas, qishloqlarni suv bilan taminlashga etibor bermas edi. Xalq boshidagi qayg'u–alamdan, musibatdan ham mustamlakachilar, sudxo'rlar unumli foydalanar edilar. Ular chorasiz qolgan mehnatkash xalqni qarz botqog'iga botirar, shu qarz evaziga ularni boqib turgan bir parcha erlarini ham tortib olar edilar.

Ko'hna madaniyatga ega bo'lgan o'zbek xalqida yozma adabiyot ancha qadimgi zamonlardayoq mavjud bo'lgan bo'lsa–da, kitob nashr etish usuli – matbaachilik ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi.

Turkistonda birinchi tipografiya 1868 yilda Toshkentda tashkil topdi. 1871 yilda kitob shaklida nashr etilgan «1871 yil kalendari» bu tipografiyaning birinchi mahsuli edi. 1877 yilda Toshkentda S.I.Laxtinning xususiy tipografiyasi ham maydonga keldi.

Xiva xonligi hududida birinchi marta 1874 yilda Xiva shahrida litografiya tashkil etildi. Ularda 1880 yilda bosilgan birinchi kitob A.Navoiyning «Xamsa»si edi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda matbaachilik ishlari ancha rivojlandi. Jumladan, 1888 yilda Toshkentda Portsov tipografiyasi, 1894 yilda Samarqandda Poltoranova matbaasi, 1901 yilda Buxoroda Baranovskiy litografiyasi, 1904 yilda Andijonda Kalachev litografiyasi, 1904 yilda qo'qonda Minakov litografiyasi va boshqalar maydonga keldi. Bu davrda mahalliy xalq o'rtasidan g'ulom Hasan Orifjonov (Toshkent), Isxoqxon Junaydullaev Ibrat (To'raqo'rg'on) kabi matbaachilar etishib chiqib, xalq orasiga ko'plab kitob tarqata boshladilar.

Bu davrda maktab–maorif sohasida ham bir qator o'zgarish ro'y berdi. O'lkada mavjud bo'lgan maktab, madrasa va korxonalar qatorida XIX asrning 80-yillaridan boshlab rus–tuzem maktablari ochila boshladi. Rus–tuzem maktablarida diniy talimdan tashqari rus tili va dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi. Bu manbalar uchun tuzilgan darsliklarda tabiat va jamiyat hayotiga doir ma'lumotlar bilan birga mashhur rus klassiklari asarlaridan namunalar ham berilar edi.

Yana bu davrda mahalliy xalq vakillari tomonidan yangi usuldagi maktablar ochilib, Saidrasul Saidazizov, A. Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Rustambek Yusufbek, Hamza kabi ko'plab pedagoglar etishib chiqqa boshladi.

Mahalliy xalq hayotidagi o'zgarishlardan yana biri turli-tuman ilmiy muassasa va jamiyatlarning ochilishi bo'ldi. 1870 yilda Toshkentda xalq kutubxonasi tasis etildi. XIX asrning 80-90 yillarida bir necha martalab (1885, 1886, 1890 yillarda) ko'rgazmalar ochilib, ularda sanoat va qishloq xo'jaligi yangiliklari namoyish qilindi.

1895 yilda Toshkentda vujudga kelgan “Arxeologiya havaskorlarning Turkiston to'garagi” 1897 yilda tashkil topgan “Rus geografik jamiyatining Turkiston bo'limi”, 1896 yilda Samarqandda tashkil qilingan “Tarixiy muzey” va boshqalarni Turkiston madaniy hayotida sezilarli iz qoldirgan ilmiy muassasalar sifatida ko'rsatish mumkin. Lekin shuni unutmaslik lozimki, bu ilmiy muassasalar asosan chor hukumatining maqsad va intilishlariga xizmat qildirish niyatida tuzilgan edi. O'lkani to'la egallamoq va uni idora qilmoq uchun uni bilish zurur edi. Shuning uchun ham chorizm Turkiston tarixi, iqtisodi, geografiyasi yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borish ishlarini uyushtirishga majbur bo'ldi.

Turkistonda sanat sohasida ham sezilarli siljishlar ro'y berdi, Evropa zamonaviy sanatining qator turlari (masalan, teatr, muzika, tasviriy sanat va boshqa) namoyish etila boshladi.

Toshkentda teatr sahnasida rus va Evropa mualliflarining ko'plab sahna asarlari o'ynaldi. Bulardan tashqari, Rossiya markaziy shaharlaridan teatr jamoalari bir necha bor gastrollarga kelib, o'z sanatlarini namoyish etdilar.

Kitobat va xattotlik san'atining o'ziga xos maktabi vujudga keladi. Ko'p qo'lyozmalar ko'chiriladi. Kotiblar bu ishda ularning janr xususiyatlariga ham e'tibor berganlar. “Bayozi g'azaliyot”, “Bayozi muxammasot” kabi alohida janrlardan iborat qo'lyozmalar ham ko'chirilgan. Devonlar jamlangan. Eng muhimi xattotlik san'atining nazariy-ilmiy qoidalariga bag'ishlangan maxsus risolalar ham yaratilgan (Munis. “Savodi ta'lim” risolasi)¹.

1884 va 1898 yillarda tashkil etilgan muzika jamiyati va “Lira” nomli to'garagi tarkibida simfonik orkestr va kamer ansambllar mavjud edi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. XIX asr o'rtalarida Markaziy Osiyodagi tarixiy–siyosiy sharoit haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Rossiya Turkiston o'lkasini nima uchun har jihatdan o'rganishga kirishdi?
- 1.3. Birinchi o'zbek matbuoti haqida mulohazalaringiz nimalardan iborat?

¹ Yuri Bregel. An historical atlas of central asia. Brill leiden • Boston/2003. 1405-1468: the Timurids, Moghuls, and Özbeks. 46-66–b.

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

XIX asrning ikkinchi yarmi Turkistondagi adabiy hayotni tahlil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. XIX asrning ikkinchi yarmida qo'qon, Toshkent, Buxoro va Xivadagi adabiy hayot to'g'risida malumot beradi.
- 1.2. Yangi o'zbek hajvchiligining maydonga kelishini izohlaydi.
- 1.3. O'zbek adabiyotida yangi janrlarning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga baho beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Turkiston adabiy hayotida ham muhim o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Ijodkorlar hayot va jamiyat voqea-hodisalariga yaqinlashdilar, ularning har biri zamonaning muhim masalalarini qamrab olishga hamda yoritishga intildilar. Ijodkorlarning o'zaro ijodiy va do'stona hamkorligi kuchaydi. 80-yillarda qo'qonda muntazam harakat etuvchi adabiy anjuman tashkil topgan. Zavqiy, Furqat, Nisbat kabi shoirlar Muqimiy boshchilik qilgan bu adabiy yig'inning faol ishtirokchilari bo'lgan. Adabiy suhbatlar, navoiyxonlik, bedilxonlik, ijodiy bahs va mushoiralar yig'in qatnashchilarining g'oyaviy–badiiy kamolotiga katta tasir ko'rsatgan.

1870 yildan boshlab o'zbek tilida «Turkiston viloyatining gazetisi» chiqqan boshladi. To'g'ri, chor general–gubernatorligining rasmiy organi bo'lgan bu gazeta rus burjuaziyasi mafkurasini targ'ib etgan bo'lsa–da, shunga qaramasdan obektiv ravishda o'z adabiy va madaniy hayotida ham malum ijobiy rol o'ynadi. Gazeta sahifalarida o'tmish adabiyotimiz namoyandalari merosidan, shuningdek, xalq og'zaki ijodidan namunalar elon qilindi. Gazeta bevosita zamonaviy adabiyotga ham sezilarli o'rin ajratdi.

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarining xalq talimi, fan va ma'daniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallagan edi. O'z boshlang'ich nuqtasini X-XII asrlardan e'tiboran olgan sofiylik tariqati naqshbandlik g'oyasi bilan uyg'unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho'qqiga ko'tariladi, to XX asrdagi siyosiy to'liq va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy rol o'ynaydi.²

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar³.

Bu davrda boshqa qardosh adabiyotlar bilan munosabat rivojlandi. Tarjima sohasida ham etiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Tarjimachilikda Furqat, Komil, Bayoniy, Shavkat, Almaiy kabi yirik ijodkorlar ham faol ishtirok etdilar.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek shariyati o'zidan oldingi davrlar shariyatidan nimasi bilan farq qiladi?
- 2.2. Mazkur davr o'zbek shariyati mavzu doirasining kegayishi sabablarini tushuntiring.
- 2.3. Bu davr o'zbek adabiyotida qaysi yangi janrlar shakllandi?

Adabiyotlar:

1. N.Jumaxo'ja, I.Adizova. «So'zdan baqoliroq yodgor yo'qdur...». Toshkent, 1994 yil.
2. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent, 1978 yil.
3. I.Adizova. El dardini kuylagan shariat. Toshkent, 1988 yil.
4. B.Qosimov va boshq.. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

Amaliy mashg'ulot mavzusi: MUHAMMAD YUSUF BAYONIY

²R.Shamsuddinov, va boshq. Vatan tarixi -T., Sharq. 2010. 119-bet.

³Yuri Bregel. AN HISTORICAL ATLAS OF CENTRAL ASIA. BRILL LEIDEN • Boston/2003. 1405-1468: the Timurids, Moghuls, and Ozbeks. 46-66 –bb.

Darsning maqsadi: Bayoniyning adabiy merosi to'g'risida tasavvur hosil qilish va uning she'rlarida ko'tarilgan masalalarni izohlash.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Bayoniyning lirik g'azallarini tahlil qiladi.
- 1.2. Navoiy, Ogahiy, Fuzuliy, Munis kabi shoirlar ananalarining Bayoniy tomonidan davom ettirilishini izohlaydi.
- 1.3. «Shajarai Xorazmshohiy» asarida Xorazm adabiy muhitiga oid qanday yangi ma'lumotlar mavjudligini aniqlaydi.

Kerakli jihozlar: Bayoniyning nashr qilingan kitoblari, shoir ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

1. Bayoniy voyaga etgan oila va u yashagan ijtimoiy muhitga baho bering.
2. Bayoniy va Muhammad Rahimxon II orasidagi o'zaro munosabatni izohlang.
3. Bayoniyning ijdiy merosini o'rganing.
4. Shoir she'riyatini bosqichlarga bo'lib tahlil qiling.
5. «Shajarai Xorazmshohiy» asarida qaysi davr voqealari izchil yoritilganligini aniqlang.
6. «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida Xorazm adabiy muhitiga oid qanday ma'lumotlar ifodalanganligini tekshiring.
7. Bayoniy tarjima qilgan asarlarga izoh bering.

Kerakli adabiyotlar:

5. N.Jumaxo'ja, I.Adizova. «So'zdan baqoliroq yodgor yo'qdur...». Toshkent, 1994 yil.
6. Bayoniy. g'azallar. Toshkent, 1962 yil.
7. Bayoniy. «Shajarayi Xorazmshohiy». Toshkent, 1991 yil.
4. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent, 1978 yil.
5. I.Adizova. El dardini kuylagan shariyat. Toshkent, 1988 yil.
6. Yu.Yusupov. Xorazm shoirlari. Toshkent, 1967 yil.
7. B.Qosimov va boshq.. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

Seminar mashg'uloti mavzusi: MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ

Darsning maqsadi: Feruzning adabiy merosi va uning shoirlik iqtidori to'g'risida talabalarda tasavvur uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Feruz lirikasini tahlil qiladi.
- 1.2. Feruzning musiqashunoslik sohasidagi faoliyatiga izoh beradi.
- 1.3. Feruzning maorif, matbaachilik va adabiy meros targ'ibidagi xizmatlariga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Feruzning nashr qilingan kitoblari, shoir ijodi xususidagi ma'naviy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

1. Muhammad Rahimxon II ning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Feruzning badiiy mahoratiga baho bering.
3. Shoirning lirik merosini tahlil qiling.
4. Feruzning musiqa sohasidagi faoliyatiga tavsif bering.
5. Feruzning matbaachilik va maorif yo'nalishidagi faoliyatini izohlang.

Kerakli adabiyotlar:

1. Feruz. Elga shohu ishqqa qul. Toshkent, 1994 yil.
2. D.Rahim, Sh.Matnazar, N.Jumaxo'ja. Feruz. Toshkent, 1995 yil.
3. N.Jumaxo'ja. Feruz – madaniyat va san'at homiysi. Toshkent, 1995 yil.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

BAYONIY LIRIKASI

1-topshiriq. Bayoniyning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Nima uchun shoir she'riyati 3 bosqichga bo'lib o'rganilishiga izoh bering.
- 1.2. Bayoniy lirikasining birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari o'zaro qanday xususiyatlari bilan farqlanishini aniqlang.

2-topshiriq. Bayoniyning tarjimalari va tarixiy asarlarini tahlil qilish.

- 2.1. Bayoniyning tarixnavislik faoliyati haqida nimalar bilasiz? Izoh bering.
- 2.2. «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi haqida ma'lumotlarni tahlil qiling.
- 2.3. Bayoniyning tarjimonlik faoliyatini baholang.

Mazkur topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Bayoniy. G'azallar. Toshkent, 1962 yil.
2. Bayoniy. «Shajarayi Xorazmshohiy». Toshkent, 1994 yil.
3. I. Adizova. El dardini kuylagan shariyat. Toshkent, 1988 yil.
4. N. Jumaxo'ja, I. Adizova. «So'zdan baqoliroq yodgor yo'qdur...». Toshkent, 1994 yil.

GLOSSARIY

Milliy uyg'onish – fransuzcha “Renessans”, ruscha “Vozrojdenie” ma'nosiga to'g'ri keladi. Renessans – Vozrojdenie G'arbda insoniyat tarixining mumtoz davri hisoblanib keladigan qadim yunon, rim madaniyatiga – antik madaniyatga nisbatan aytilgan bo'lib, uning bosh xususiyati shahar madaniyatining gurkirab o'sishi, ilm va ijod egalariga xos qomusiylik, gumanizmning ijtimoiy-ma'naviy turmushning barcha jabhalariga kirib borishidir. XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo'lgan “milliy uyg'onish” Vatan taraqqiyotining bosh omili – millatning o'z-o'zini anglashi sifatida qaraladi.

“Adabiyot” (Литература, Literature) - arabcha so'z bo'lib, u “odob” (ko'plik shakli “adab”) so'zidan olingan.

“Adabiyot tarixi” (История литературы, History of literature) - adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o'rganadi.

Aruz (Аруз, aruz) arabcha so'z bo'lib “chodir ushlab turadigan o'rta qo'yilgan yog'och” demakdir. Aruz she'r tizimi – qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib, takrorlanishiga asoslangan metrik she'r tizimidir. Manbalarda aruzga VIII asrda Aruz vodiysida yashagan arab olimi Xalil ibn Ahmad asos solgani, “aruz” atamasi shu joyning nomlanishidan olingani, “Qur'on” arab tilida nozil qilingani, shu bois tilining mavqeyi yuksak bo'lgani, islom dinining ta'siri tufayli aruz musulmon sharqida uzoq asrlar davomida yetakchi she'r tizimi bo'lib kelgani, dastlab arab adabiyotida paydo bo'lgan ushbu she'r tizimi IX asrda fors adabiyotida qo'llana boshlagani qayd etiladi. Fitrat Hijriy 462 yilda Qashqarda yozilgan “Qutadg'u bilig”ni turkiy adabiyotda aruzda bitilgan dastlabki asar sifatida ko'rsatadi. Aruz IX asrdan XIX asr oxiri – XX asr boshigacha o'zbek adabiyotida asosiy she'r tizimi bo'lib kelgan. Aruz mexanik tarzda emas, balki fors va turkiy til xususiyatlariga moslashtirib o'zlashtirilgan. Mumtoz aruzshunoslikda aruzning ritmik birliklari sifatida harf, juzv, rukn va bahr ko'rsatiladi. XX asrda Fitrat o'zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hijo, rukn va bahr turkiy “o'zbek” aruzining ritmik birliklari ekanligini asoslab bergan.

Barmoq (Бармак, Barmaq) – misralardagi bo'g'inlar sonining tengligi va bir xil tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslangan she'r tizimi. Barmaq turkiy xalqlar she'riyatida keng tarqalgan she'riy vaznlar tizimidir. Barmaq turkiy tillarning tabiati, fonetik xususiyatlariga to'la mos keladi. Turkiy xalqlar folkloridagi she'riy asarlar barmoqda yaratilgan. Shu bois Fitrat “barmaq – milliy vazn” degan. Barmaq yuzlab vaznlarni o'z ichiga olgan she'r tizimi bo'lib, uning ritmik intonatsion imkoniyatlari juda kengdir. Barmoqda misralardagi bo'g'inlar sonining tengligi hamda ular (bo'g'inlar)ning qanday tartibda turoqlanishi (guruhlanishi) she'rning ritmik xususiyatlarini belgilaydi.

MAVZU: KOMIL XORAZMIY

Mavzu rejasi:

1. Komilning tarjimai holi
2. Komil lirikasi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Eski maktab va madrasa tahsili, Komilning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, sherlarida muhabbat mavzusi, ijodida hajviy yunalish, bastakorlik va musiqashunoslik faoliyati, tarjimalari.

1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Komilning oilasi, eski maktab va madrasadagi tahsili, shuningdek, davlat arbobi sifatidagi faoliyati to'g'risida malumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Komil voyaga etgan oila, shuningdek, eski maktab va madrasadagi tahsili to'g'risidagi so'zlaydi.
- 1.2. Komilning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga baho beradi.
- 1.3. Komil va Matmurod, Komil va Feruz o'rtasidagi munosabatlarni izohlaydi.

1-asosiy masalaning bayoni:

Komil 1825 yili Xiva shahrida tug'ildi. Uning otasi Abdulla Oxund Xiva madrasalarining birida mudarrislik qilar edi. Bo'lajak shoirning ota-onasi Pahlavon Mahmudga bo'lgan yuksak etiqodlari yuzasidan Komilni «Pahlavon» laqabi bilan atar edi, uning asl ismi Muhammadniyoz bo'lib, musiqa o'ld adabiyotlarda bu ism Niyozmuhammad, Ogahiy asarida Polvonniyoz shaklida zamondoshlari tomonidan «Matniyoz» deb ham atalgan. «Komil» esa uning adabiy taxallusidir.

Komil o'qimishli oilada tarbiya topib, maktabni bitirgach, Xiva madrasalarining birida ta'lim ola boshladi. Lekin otasidan bevaqt judo bo'lgach, Muhammadniyoz madrasadagi o'qishini to'xtatib, savdogar bobosi Xo'jash Mahram xizmatiga kiradi. Oila tirikchiligini yo'lga qo'ygach, yana o'qishni davom ettiradi.

Komilning qachon sher yoza boshlagani nomalum. Uning 25-30 yoshlarida Xorazmda taniqli shoir hisoblangani malum.

Komil madrasada o'qishdan tashqari sher yozish, xattotlik sanatini egallash qatorida milliy musiqa asboblarni chalishni ham jiddiy o'rgangan.

Komil Xorazmiy dastlab 1856-1865 yillarda hukmronlik qilgan Xiva xoni Said Muhammadxon zamonida saroyda xattot vazifasida ishladi. So'ngra, 1865 yilda taxtga o'tirgan Muhammad Rahimxon II zamonida esa mirzoboshilik vazifasini bajarishga kirishdi. 1873 yillarda chorizmning Xiva xonligiga qilgan harbiy yurishi davrida ham Komil mirzaboshchilik vazifasini bajarar edi.

Xiva bosib olingach, chor hukumati va Muhammad Rahimxon II xonlikning Gandimiyon bog'ida sulh tuzadilar. 1873 yil 29 may bu tarixiy sulh matni Komil tomonidan yozildi va «Gandimiyon sulhi» nomini oladi. Shundan so'ng xon uni devonbegi vazifasiga tayinlaydi. Sobiq devonbegi Matmurod esa qozog'istonning g'azali degan joyiga, so'ng Kaluga guberniyasiga surgun qilinadi. Komil devonbegi ekani vaqtida Xorazm madaniy hayotida katta o'zgarishlarni amalga oshirdi. 1873 yili tosh bosma yo'li bilan kitob nashr etish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga kitoblarni qo'lda ko'chirish ishlari ham davom ettirildi. U keyinchalik mashhur bo'lgan Muhammad Panoh, Muhammad Sharif Tarro, Xudoybergan Mehrikon, Matyoqub Harrot va o'z o'g'li Muhammad Rasul kabi xattotlarni tarbiyalab etishtirdi.

1879–1880 yillarda Matmurod surgundan qaytadi va xon uni o'z vazifasiga qo'yadi. Komil yana saroyda mirzaboshi qilib tayinlanadi. Endi shoir ko'p vaqtini adabiyot va san'atni rivojlantirishga bag'ishlaydi. 1880 yillarning boshlarida devonini nashr ettiradi. Musiqa ishlariga ham katta e'tibor qaratib, o'z atrofiga yaxshi sozandalarni to'playdi. Uning «Rost» maqomi yo'lida yaratgan «Murabbai Komil», «Peshravi Feruz» kuylari hozirgi kunlarda ham ijro etilib kelmoqda.

Komil Rossiyaga birinchi marta 1883 yilda borgan. U Moskva va Peterburgga sayohat qilgan.

Komilning faoliyatida tarjimonlik ham muhim o'rin tutadi. U 1865 yilda Barxurdor Turkman Mumtozning (18 asr) nasriy «Mahfil-oro» asarini fors tilidan tarjima qilgan edi. 1869–1870 yillari XVI asr muallifi Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif ut-tavoyif» asarini «Latoyif uz-zaroyif» («Zarif latifalar») nomi bilan forschadan tarjima qilishga kirishib, uni ham tezda adolati. Komilning diqqatini tortgan navbatdagi asari mashhur tarixchi Mirxondining «Ravzat us-safo» asari bo'ldi. Uning tarjimasi Munis va Ogahiy tomonidan boshlangan va lekin tugallanmay qolgan edi.

Komil 1891 yili Toshkentda bo'ldi. U lotin bosmaxonasini, gimnaziyani borib ko'rdi, teatrga kirdi. 1896-1897 yillarida u yana Toshkentga keladi. Bu uning oxirgi sayohati bo'lib, u og'irlashib borayotgan ahvolini tuzatish - davolanish uchun kelgan edi. Komil Toshkentda ko'zini doktorlarga qaratadi lekin hech yordam topa olmaydi. Shoir 1899 yili 74 yoshida hayotdan ko'z yumdi.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar⁴.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Komilning turmush tarzi va ilm olishi haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Komil va Matmurod o'rtasidagi o'zaro munosabatni qanday izohlaysiz?
- 1.3. Komil va Muhammad Rahimxon II munosabatiga qanday baho berish mumkin?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Komilning ijodiy merosi, shariyati, sherlarida ulug'langan fazilatlar haqida tushuncha berib, uning musiqashunos va tarjimon sifatidagi faoliyatiga baho berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Komilning ijodiy merosi to'g'risida so'zlaydi.
- 2.2. Shoirning lirik sherlarini tahlil qiladi.
- 2.3. Komilning hajviy sherlariga baho beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Komil Xorazmiy shoir sifatida mumtoz shariyatimizning eng yaxshi analarining merosxo'ri va ijodiy davomchisi bo'ldi. U zo'r istedod bilan o'tmish poeziyamizning boy shariy shakllarini, murakkab vazn turlarini, rang-barang uslubini chuqur egalladi va katta mahorat bilan ularning go'zal namunalarini yaratdi.

Komilning badiiy ijodi Sharq poeziyasining eng yaxshi analari asosida, birinchi navbatda ulug' A.Navoiy lirik merosining tasirida shakllangan. Xorazmda ijod qilgan o'zbek shoirlarining deyarli hammasi Navoiyga ergashgan. Shu jumladan, Komil ham Navoiy asarlarini juda sinchiklab o'rgangan, uning ruhiga kirgach va poetik ijodida navoiyvor qalam tebratish bilan farqlangan:

Netong Komil Navoiy yonglig' ulsa so'z aro sarmast...

⁴Yuri Bregel. AN HISTORICAL ATLAS OF CENTRAL ASIA. BRILL LEIDEN • Boston/2003. 1405-1468: the Timurids, Moghuls, and Özbeks. 46-66 –bb.

Shuning uchun Komil devoniga kirgan muhammaslarning katta qismi Navoiy g'azallariga bog'langan.

Komil ijodida Xorazmda etishgan Munis, Ogahiy kabi ulkan qalam sohiblarining, ham tasiri katta bo'ldi. Munis, malum manoda Xorazm adabiy harakatchiligining asoschisidir. Munisdan keyin o'tgan deyarli hamma xorazmlik qalamkashlar, shu jumladan, Komil ham uning ustozlik mavqeini tan oladilar.

Komil shariyatining ilg'orligi, xalqchilligi shundaki, u o'z ijodining hamma davrlarida adabiyotimiz ilg'or ananalariga amal qilib, adolatni, taraqqiyotni yoqladi, xalqning ezgu umidlarini kuylab, zulmni, jaholatni qoraladi. Shuning uchun ham uning ijodi o'zbek klassik adabiyotining ilg'or vakillari ijodiga hamohangdir.

Komil o'z zamonidagi shoir-fozillarning ahvolini tasvirlab, ularning johil amaldorlar zulmidan qon yutayotganligini yozadi.

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,
Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo.
Juhalo zumrasi kelib g'olib,
Bo'ldi mag'lubi notavon fuzalo.
qatnabon siflalar eshikiga,
Topmas o'ltirgali makon fuzalo...

«Juhalo» degan radifli g'azalida esa Komil amaldorlarning poraxo'rlik mayi bilan mast bo'lib, adolatni butunlay unutganligini, yomonlikka rivoj berib, ko'p mol-davlat to'plaganligini, olimlarning obro'sini to'kib, johil va nodonlarni himoya qilganligini aytadiki, bu xil g'azallar publitsistik sherning eng yaxshi namunalari hisoblanishi mumkin.

No'sh etib rishva mayin, etmay ulus dodiga,
Bilmadilar dame oyini adolat juhalo.
Bo'libon hamoyi arbobi fasodu sirkat,
Jam qildilar ukush davlatu sarvat juhalo...

Shoir ijodiga xos bosh xususiyat - o'zbekcha va forsha sherlarining hayot va xalq turmushiga yaqinligidir.

Komil adabiy merosida mulla-imomlar, shayx-zohidlar, ularning kirdikorlarini fosh etishga ham malum o'rin berilgan. U o'z sherlarida masjidda bekorga jar solib, odamlarni laqqillatgan riyokor shayxlarni kechasi bekorga uvillagan itga o'xshatishgacha jurat etadi.

Tortar riyoyi shayxlar masjidda jahr aylab fig'on
Yo ko'kka boqib ko'chada har kecha it uvlarmudur.

Muhabbat mavzusi Komil ijodida ham olijanob insoniy fazilatlarni kuylash vositasi hisoblanadi. Shu sababli shoir insonni muhabbatsiz tasavvur qila olmaydi.

Ko'ngul vayron bo'lur bir lahza ayrilsa xayolingdin,
Harob o'lgay base, har mulkkim, gar bo'lsa sultonsiz.
Zamiring aylagil ishq muhabbat madani, Komil,
Ne qadru etibor o'lgay sadafga durri g'altonsiz.

Komil muhabbatni inson qalbidagi eng qimmatli madan deb tariflaydi. U samimiy muhabbat orqali insonparvarlik g'oyalarini, do'stlik, vafodorlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni targ'ib qiladi.

Komil ijodida shiru shakar shaklida yaratilgan sherlar ham uchraydi:

Jamoling to sipehri husn uza chun mehru anvar shud,
Bo'la olmay muqobil gulixon az zarra kamtar shud.

Komil poeziyasida muxammas janri ham muhim o'rin tutadi. Shoir muhammasning taxmis shaklidan foydalanib, A.Navoiy, Munis, Ogahiy kabi sanatkorlar g'azallariga muvaffaqiyatli muhammaslar bog'lagan va o'zining badiiy mahoratini namoyish etgan.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Shoirning lirik sherlarini sharhlang.
- 2.2. Komil ijodiy merosida hajviyot qanday o'rin tutadi?
- 2.3. Komilning bastakor va musiqashunoslik faoliyatiga munosabatingiz?

Adabiyotlar:

1. N.Jumaxo'ja, I.Adizova. «So'zdan baqoliroq yodgor yo'qdur...». Toshkent, 1994 yil.
2. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent, 1978 yil.
3. B.Qosimov va boshq.. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

Amaliy mashg'ulot mavzusi: KOMIL LIRIKASI

Darsning maqsadi: Komil lirikasi, ijodining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil qiladi.
- 1.2. Komilning yangicha ma'rifatparvarlik yo'nalishdagi ijodiga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Komilning she'riy to'plami, ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

1. Komilning yirik madaniy tadbirlar tashkilotchisi safatidagi faoliyati haqida ma'lumot bering.
2. Komil va Feruz munosabatlarining yangicha talqini haqida gapiring.
3. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini sharhlang.
4. Shoirning yangicha ma'rifatparvarlik yo'nalishdagi ijodini tahlil qiling.
5. Komilning hajviy she'rlariga tavsif bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. Komil. Devon. Toshkent, 1975 yil.
2. Yunusov M. Komil Xorazmiy. Toshkent, 1960 yil.
3. Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. Toshkent, 1993 yil.
4. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

Seminar mashg'uloti mavzusi: KARIMBEK KAMIY

Darsning maqsadi: Talabalarda Kamiy ijodi xususida ma'lumotlar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi ijod namunalarini tahlil qiladi.
- 1.2. Kamiyning ma'rifat mavzusidagi she'rlariga izoh beradi.
- 1.3. Shoir hajviyotiga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Kamiyning nashr qilingan kitoblari, shoir ijoda xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Kamiyning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Shoirning lirik she'rlarini tahlil qiling.
3. Kamiy hajviyotiga baho bering.
4. Shoirning tasavvufga bo'lgan munosabati haqida nimalar bilasiz? Izohlang.
5. Kamiy ijodi haqidagi tanqidiy fikrlarni o'rganing.

Kerakli adabiyotlar:

1. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003 yil.
2. Karimbek Kamiy. Dilni obod aylasang... Toshkent, 1998 yil.
3. A.Jalolov. O'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti. Toshkent, 1978 yil.
3. O.To'labov. Karimbek Kamiy. O'zbek tili va adabiyoti, 1993 yil, № 4.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIG'I

Mavzu: ISHOQXON IBRATNING ADABIY MEROSI

1-topshiriq. Ibratning adabiy merosiga baho berish

- 1.1. Shoirning ma'rifatparvarlik yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Ibrat lirik merosining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

2-topshiriq. Ibratning tilshunoslikka oid va tarixiy asarlarini tahlil qilish.

- 1.1. Ibratning tilshunoslikka oid faoliyati haqida nimalar bilasiz? Izoh bering.

- 1.2. «Tarixi Farg'ona» asarida qo'qon xonligi va Xudoyorxon haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiling.
- 1.3. Ibratning rus bosqiniga bo'lgan munosabatini aniqlang.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Ishoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. Toshkent, 1993 yil.
2. Ibrat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999 yil.
3. U.Dolimov. Ishoqxon Ibrat. Toshkent, 1994 yil.

GLOSSARIY

Bayt (Байт, Bayt) arabcha so'z bo'lib, "uy" degan ma'noni bildiradi. Bayt – sharq she'riyatidagi ikki misrali band turi. Lekin har qanday ikki misra she'rning bayti bo'lolmaydi. Bayt ritmik-intonatsidi va mazmun jihatidan nisbiy mustaqillik kasb etishi, ya'ni band maqomiga ega bo'lishi kerak. Shu bois bayt atamasi g'azal, qit'a, qasida janrlariga nisbatan ishlatilishi o'rinli. Sharq she'riyatidagi boshqa janrlarining ikki misrali bandlariga nisbatan esa "masnaviy" atamasini qo'llash tug'riroq bo'ladi.

Drama – (Драма, drama) yunoncha drama – harakat. Badiiy adabiyotning uchta turidan biri. Dramaning tasvir predmeti harakat bo'lib, tragediya, komediya, drama uning janrlaridir. Sahnada ijro etish uchun mo'ljallab yaratiladi. Dramaning asosiy nutq shakli dialog bo'lib, personajlarning monologik nutqi ham diologik asosga ega bo'ladi.

MAVZU: MUQIMIY

Mavzu rejasi:

1. Shoirning tarjimai holi
2. Muqimiyning adabiy merosi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Bolalik va o'qish yillari, ijodiy merosi, shariatida muhabbat mavzusi, hajviyotida ijtimoiy illatlarning tanqidi, ijodida siyosiy mavzu, mutoyibalari, «Sayohatnoma»lari, shoir ijodida maktub janri

1 – asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Muqimiyning bolalik va o'qish yillari haqida tushuncha berish, shuningdek, uning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri ekanligini asoslash.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Muqimiyning bolalik va o'qish yillari haqida malumot beradi.
- 1.2. Muqimiy va hukmron doiralari o'rtasidagi munosabatni tushuntiradi.
- 1.3. Muqimiyning Toshkentdagi hayotiga baho beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy 1850 yilda Qo'qon shahrida tug'ildi. Uning otasi Mirzoxo'ja asli toshkentlik bo'lib, 1835–36 yillarda o'z otasi Mirfozil bilan qo'qonga ko'chib borgan. Mirzoxo'ja Qo'qonda Bibioysha (Oyshabibi) ismli qizga uylangan. Mirzoxo'ja bilan Bibioysha besh farzand – to'rt qiz (Tojinisa, Ulug'bib, Saydinisa, Mehrinisa) va bir o'g'il (Muhammad Aminxo'ja) ko'rgan edi.

Muqimiy maktab yoshiga etgach, odatga ko'ra, uni o'z mahallasidagi maktabdori domlaga topshirdilar. U mahalla maktabini bitirgach, qo'qonning mashhur «Hokim oyim» madrasasida o'qigan.

Muqimiyning qachondan boshlab sher yozishga kirishganini aniq belgilash qiyin. U taxminan o'z ijodini 60–yillarning o'rtalarida boshlagan deb aytish mumkin. Muqimiy, taxminan, 1872–73 yillarda qo'qon madarasini bitirgach, o'qishini davom ettirish uchun o'z davrining ilmiy markazi hisoblangan Buxoroga ketadi. Uning bir necha yil davomida Buxoroda bo'lishi uning manaviy takomilida sezilarli iz qoldirdi. Ayniqsa, shoirning fors tilini mukammal o'rganib, u tilda badiiy yuksak sherlar yozishida Buxoro muhitining tasiri kuchli bo'ldi.

Shoir 1876 yillarda Buxorodan o'z yurtiga Qo'qonga qaytdi. Muqimiy Buxoroda o'qib yurgan kezlari, uning otasi Mirzaxo'ja uzoq vaqtlar beva yurganidan so'ng (Muqimiyning onasi Xumorbibi, taxminan 1867 yillar atrofida vafot etgan edi) Ziyodabibi ismli bir juvonga uylangan edi. Ziyodabibi Mirzaxo'ja oilasiga uch qizini ham ergashtirib kelgan edi.

Mirzaxo'ja va Ziyodabibi - er va xotin quda bo'lishga qaror qildilar; bu maslahatga «ishi yurishmay turgan» Muqimiy ham qarshilik ko'rsatmadi. Natijada u o'z o'gay singlisi Sanambibiga uylanib, «uy-joylik» ham bo'lib qoldi. Muqimiy 1877 yilga yaqin qo'qondagi er qurilishi mahkamasiga mirzalik (sarkotiblik) vazifasiga ishga kirdi. Oradan ko'p o'tmay Muqimiy ishini o'zgartiradi va qo'qonning g'arbi – shimolida Sirdaryo yoqasidagi Oqjar paromida pattachi vazifasida ishlay boshladi.

Muqimiy hayotining 1876 yildan keyingi yillarini shoir ijodining burilish davri deb hisoblash kerak. Bu davrda Muqimiy klassik adabiyotning eng yaxshi ananalarini o'ziga singdirib olgan etuk shoir sifatida uni boyitib, rivojlantirib bordi.

Muqimiy er qurilishi mahkamasidagi mirzalikni qanday sabablar bilan tark etgan bo'lsa, xuddi shunday sabablar bilan Oqjar paromidagi pattachilikdan ham voz kechdi va u 70–yillarning oxirlarida qo'qonga kaytib, butun borlig'i bilan ijodiy ishga sho'ng'idi.

Muqimiy shoir sifatida shunday katta obro' qozona boshladi, xalq o'rtasida obro'li va suyakli shoir bo'lishidan tashqari, turmush hodisalarini, adolatsizliklarni tanqidiy baholovchi hajvguy ham edi.

1879 yilda Muqimiy Sanambibi bilan ajraldi va o'g'li Akbarxo'jani onasida qoldirib, boshqa oila qurdi. 1885–86 yillarda Muqimiy oilasida yana baxtsizlik ro'y berdi: oilani arang tebratib turgan Mirzaxo'ja vafot etdi. O'gay ona, singillar, go'dak o'g'li, ularga yolg'iz Muqimiy qarashi va bundan keyin ularni o'z parvarishiga olishi zarur bo'lib qolgan edi, lekin Muqimiyning doimiy daromadi va shoirlikdan boshqa kasb-kori yo'q edi. Hovli-joyini, ro'zg'orini oila tirikchiligi uchun sarf etib, o'gay onasi va singillarini biroz iqtisodiy jihatdan tinchitgach, o'zi bu bo'g'iq muhitdan, kulfatli hayotdan qutulishning birdan–bir yo'li qo'qonni tark etib, Toshkentdan panoz izlab, yo'lga chiqdi.

Muqimiyning Toshkentga qilgan bu birinchi sayohati 1887–88 yillarga to'g'ri keladi. Bu sayohat uning hayoti va ijodi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent madaniyat muhitidan juda katta manaviy oziq oldi. Uning bu sayohati shoirni Toshkent bilan bir umrga bog'ladi. Muqimiy Toshkent taassurotlari bilan fikriy jihatdan boyib, ijodiy tajribada yanada chiniqib, qo'qonga qaytdi va umrining oxirigacha Toshkent bilan aloqasini uzmad. U keyinroq yana ikki marta: 1892 va 1899 yillarda ham Toshkentga kelib ketadi.

Muqimiy «rasmiiy vazifa»larda ishlamagan, «doimiy daromad»ga ega bo'lmagan bo'lsa ham, u uzluksiz mehnat bilan umr kechirgan: uning malum daromad manbalari bo'lgan. Avvalo, Muqimiyning tirikchilik manbalari to'g'risida fikr yuritganda, uning xattotlik–kotiqlik hunari bo'lganligini unutmaslik kerak.

Muqimiy o'z zamonasining mashhur xattoti sifatida odamlardan buyurtmalar qabul qilar va kitobat ishi bilan shug'ullanar edi. Muqimiy jamiy qalamda lavhalar ham yozgan. Bu nodir va qimmatbaho sanatning Muqimiy qo'li bilan yozilgan bir qator namunalari bizgacha etib kelgan.

O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar⁵.

Uzoq muddat davom etgan og'ir va musibatli turmush o'z ishini qildi: shoir tez–tez kasalga chalinib, 4–5 oylab yotib qoladigan bo'ldi. 1899–1900 yillarda umrining oxirlarigacha bo'lgan davrda shoir sog'ligi ancha og'irlashgan edi.

Muqimiy sog'lig'i, hayoti to'g'risida uning yor–do'stlari g'amxo'rlik qilib turganlar. Bu vaqtlarda shoirning taxminan 21–22 yoshlarga kirgan yolg'iz o'g'li Akbarxo'ja ham otasi bilan madrasada yashagan. U shoir hayotining so'ngi yillarida doim birga bo'lgan va otasining holidan xabardor bo'lib turgan. O'z asarlari bilan xalq dilidan abadiy joy olgan mashhur shoir Muqimiy uzoq davom etgan kasallikdan so'ng 53 yoshida, 1903 yil 25 may dushanba kuni kechasi madrasadagi o'z hujrasida vafot etadi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Muqimiyning hukmron doiralar bilan bo'lgan munosabati haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Shoirning Toshkentga qilgan sayohati ijodiga qanday tasir ko'rsatgan?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Shoir lirikasi, sherlarining mavzu doirasi haqida tasavvur uyg'otish, shuningdek, hajviyoti va «Sayohatnoma»larini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Shoirning adabiy merosi to'g'risida malumot beradi.
- 2.2. Muqimiyning lirik sherlarini tahlil qiladi.

⁵Yuri Bregel. AN HISTORICAL ATLAS OF CENTRAL ASIA. BRILL LEIDEN • Boston/2003. 1405–1468: the Timurids, Moghuls, and Ozbeks. 46–66 –bb.

2.3. Shoirning hajviyoti va yumorlarini izohlaydi.

2.4. Muqimiy «Sayohatnoma»lariga baho beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Muqimiy shariyatining asosini muhabbat mavzusi tashkil etadi. U muhabbat alangasida yongan insonni kuylaydi. Bu inson istaklari, armonlari, kurashlari kechinmalari, sevgi va alamlari. Shoir sherlarining tub mazmunini tashkil etadi.

Muqimiy o'z shariyatining «muhabbat qo'shig'i» ekanligini qayta-qayta takidlaydi. U muhabbat alangasida yongan insonni kuylaydi. Bu inson istaklari, armonlari, kurashlari, kechinmalari, sevinch va alamlari, shoir sherlarining tub mazmunini tashkil etadi.

O'zimda, garchikim, had yo'q edi alhamdulillahkim,

Muborak ko'yniga jo topdi ashorim mani oni.

Muqimiy so'zidan bo'yi muhabbat kelgay, ey ahhob.

Tarannum qilsa mahfillarda hofizlarni hushxoni.

Muqimiy g'azallari muhabbat iztiroblaridan entikkan bir oshiq kechinmalarining jonli va haqqoniy ifodasidir. Unda, xuddi hayotning o'zida bo'lganidek, nozik va chuqur tuyg'ular, qarama-qarshi kayfiyatlar aks etadi. Bu g'azallarda muhabbat alangasida o'rtangan yurakka xos qayg'u-alam bilan birga og'ushining lazzati ham bor, ayriliq-hijron jafolaridan faryod qilish bilan birga, yor-visol umidining sevinchlari ham yangrab turadi.

Muqimiy ijodiy merosida hajviyot salmoqli o'rin tutadi. Shoir satiralarini tanqid obektiga qarab, shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Chor chinovniklari va mahalliy amaldorlar zulmini ko'rsatishga qaratilgan satiralar («Tanobchilar», «Dod-xohim», «Axtaring», «Saylov», «Tar mevalar», «Dar mazammati sageki, ellik boshi nomi nixoda budand»).

2. Mahalliy boylar, mustamlakachilarning kirdikorlarini ochib tashlashga qaratilgan satiralar. («Maskovchi boy tarifida», «Hajvi Viktor boy», «Hajvi Viktor», «Voqeai Viktor», «Dar shikoyati Laxtin», «Voqeai ko'r Ashurboy», «To'yi Iqon bachcha», «Hoji qadoqchi», «Gap to'g'risida gap»).

3. Jamiyatda tekinxo'rlik bilan hayot kechiruvchi din ahllarini tanqid qilishga bag'ishlangan satiralar. («Hajvi xalifai Mingtepa», «Dar mazammati qurbaqa», «Avliyo» va boshqalar).

Muqimiy hajviyotining ikkinchi qismi yumoristik sherlardir. Muqimiyning o'ttizga yaqin yumoristik asarlari bo'lib, ulardan yigirma beshtasi nashr etilgan. Bu mutoyiba sherlar bir necha mavzularga bo'linadi. Muqimiyning tabiga yoqqan mavzular ham borki, shoir bu mavzularga qayta-qayta murojaat qiladi. Bu holni ot, arava, loy, pashsha, bezgak mavzularida ko'rish mumkin. Muqimiyning ko'sa mavzusiga alohida moyilligi seziladi. Chunonchi, u «Ko'samen», «Devonamen» radiflarida beshta sher yozgan. Ot mavzusidagi sherlari ham bundan kam emas.

O'zbek adabiyotida malum va g'oyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan «Sayohatnoma» janrini boshlab beruvchi Muqimiy bo'ldi. Turli vaqtlarda qilgan sayohat taassurotlarini tasvirlab, uchta «Sayohatnoma» yozdi. Keyinchalik shoirning yangi «Sayohatnoma»si «Isfara sayohati»dan ham topildi.

Muqimiy «Sayohatnoma»lari o'z vaqtida naziralarni maydonga keltirdi. Chunonchi shoir Zavqiy ham Muqimiy ananasini davom ettirdi.

Muhokama uchun savollar:

2.1. Shoirning shariyati mavzu jihatidan necha guruhga bo'linadi?

2.2. Shoirning hajviy asarlarida qanday muammolar ko'tarilgan?

2.3. «Sayohatnoma» janrining shakllanishi va uning Muqimiy ijodida tutgan o'rni haqida nimalar bilasiz?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: MUQIMIY LIRIKASI

Darsning maqsadi: Shoir adabiy merosi, larikasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Muqimiyning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlariga tavsif beradi.
- 1.2. Shoirning hajviy asarlarini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: Muqimiyning nashr etilgan kitoblari, ijodi to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Muqimiyning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil qiling.
3. Shoirning siyosiy mavzudagi she'rlarini sharhlang.
4. Shoir hajviyotiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
5. Muqimiy yumarlariga tavsif bering.
6. «Sayohatnoma» janrining shakllanishi va uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rniga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. Muqimiy. Asarlar. Toshkent, 1974 yil.
2. G'. Karimov. Muqimiy hayoti va ijodi. Toshkent, 1976 yil.
3. A. Abdug'afurov. Muqimiy satirasi. Toshkent, 1976 yil.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI

Darsning maqsadi: Jadidchilik harakatining shakllanishi, uning maqsad va vazifalari to'g'risida tushunchalar hosil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Jadidchilik harakatining shakllanish omillari xususida ma'lumot beradi.
- 1.2. Jadidchilik harakatining mohiyati, uning tarixda tutgan o'rniga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manba.

Ishni bajarish tartibi:

1. Jadid va jadidchilik tushunchalarining mahiyati haqida ma'lumot bering.
2. Jadidchilik harakatining shakllanishi sabablarini tahlil qiling.
3. Ismoilbek Gaspiralinining tarjimai holi to'g'risida gapiring.
4. Tatarlar va kavkaz turklari o'rtasida jadidchilikning tarqalishi va taraqqiyotiga tavsif bering.
5. Jadidchilik harakatining adabiyotga bo'lgan ta'siri masalalarini izohlang.

Kerakli adabiyotlar:

1. B. Qosimov. Jadidchilik. Milliy uyg'onish (to'plam). T., 1993
2. B. Qosimov. Ismoilbek Gaspirali. T., 1992
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., 1999
4. B. Qosimov. Milliy uyg'onish. T., 2002
5. B. Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

**MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI
MUQIMIY LIRIKASI**

1-topshiriq. Muqimiyning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Shoirning an'anaviy she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Muqimiy «sayohatnoma»lariga xos xususiyatlarni aniqlang.

2-topshiriq. Muqimiyning hajviy she'rlarini tahlil qilish.

- 2.1. Shoir hajviyotiga xos bo'lgan belgilarni aniqlang.
- 2.2. Muqimiy yumorlarida ko'tarilgan masalalarga baho bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Muqimiy. Asarlar. Toshkent, 1974 yil.
2. G'. Karimov. Muqimiy hayoti va ijodi. Toshkent, 1976 yil.
3. A.Abdug'afurov. Muqimiy satirasi. Toshkent, 1976 yil.
4. S.Ahmedov. O'zbek adabiyotida «Sayohatnoma». Toshkent, 1986 yil.

GLOSSARIY

Badiiylik (Поэтика, Poetics) – ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli sifatida yaratilgan asarning san'atga mansubligini belgilovchi xususiyatlar majmui. Obrazlilik badiiylikning birinchi sharti bo'lib, u voqeyelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash demakdir.

Badiiy til (Художественный язык, Poetic language) – so'z san'atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi. Badiiy til “Badiiy asar tili”, “badiy asar tili”, “poetik til” deb ham yuritiladi. Badiiy til milliy til bazasida voqye bo'lib, milliy tildan badiiy informatsiyani shakllantirish va yetkazish maqsadida foydalanish shaklidir. Badiiy til milliy tidan keskin farq qiluvchi alohida emas. Badiiy til badiiy asarlarda namoyon bo'ladi. Kundalik muloqot tili oddiy informatsiya yetkazsa, badiiy til badiiy informatsiya yetkazadi. Badiiy til yetkazayotgan informatsiya obrazli informatsiya bo'lib, uning vositasida ijodkor tasavvurida yaralgan obraz muayyan ko'rinish kasb etadi. Badiiy obraz esa voqeyelikning konkret his etiladigan, o'quvchi ongida qayta jonlanadigan ijodiy aksidir. Ilmiy, rasmiy uslubda ifodalangan informatsiya esa konkret obraz sifatida tasavvur uyg'otadi. Obraz ijodkor qalbida qayta ishlangani bois hissiyotga yo'g'rilgan bo'ladi va bu hissiyot o'quvchi, tinglovchi, tomoshabinga “yuqadi”. Obrazlilik (tasviriylilik) va emotsionallik badiiy tilga xos xususiyatdir.

Bahr (Бахр, Bahr) arabcha so'z bo'lib, “dengiz” demakdir. Bahr –aruzda yozilgan she'r va ruknlarning takrorlanish tartibi, muayyan she'rdagi o'lchov asosi. Aruzda hiyo, rukn, misra va bayt (arab aruzida, harf, juzv rukn, bahr, bayt) she'rning o'lchov birliklari bo'lib, bunda bayt konkret she'rning ritmik jihatdan tugal birligi, boshqalari esa uning tarkibiy qismlaridir. Bahr misra doirasida voqye bo'ladi. Chunki birinchi misradagi ruknlar tartibi keyingi misralarda aynan takrorlanadi. Aruzda 8 ta rukn (asl)ning muayyan tartibdagi takroridan bahrlar paydo bo'ladi. Naoviy “Mezon ul avzon” asarida aruzda 19 ta bahr mavjudligini, Bobur esa “Muxtasar”ida unda 21 ta bahr borligini ko'rsatadi. Bahrlarning 7 tasi (mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil va vofir) bitta rukn takroridan (masalan: mafoiylun / mafoiylun... – hazaj; foilotun / foilotun... – ramal) hosil bo'ladi. Faqat maf'ulotu asli (rukni) o'zi mustaqil holda bahr hosil qilmaydi. Bittadan olingan ikkita asl (rukni) takroridan yan 8 ta bahr (muzori', hafif, mujtass, munsarih, muqtazab, tavil, madid va basit) hosil bo'ladi. Masalan: mafoiylun / foilotun... – muzori'; foilotun / mustaf'ilun... – hafif. Ikkita bir xil va bitta boshqa asl (rukni) takroridan esa yana 4 ta bahr (qarib, mushokil, g'arib va sari') hosil bo'ladi. Masalan: foilotun / foilotun / mustaf'ilun – qarib; foilotun / foilotun / mafoiylun – mushokil. O'zbek tili xususiyati bilan bog'liq holda she'riyatimizda hazaj, ramal, rajaz, muzori', hafif, mujtass, munsarih, sari', mutaqorib bahrlari faol qo'llangan. O'zbek she'riyatida mutadorik, komil, tavil bahrlari esa juda kam uchraydi. She'riyatimizda vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz, amiq bahrlari ishlatilmagan.

MAVZU: FURQAT

Mavzu rejasi:

1. Furqatning tarjimai hol
2. Shoirning adabiy merosi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Marg'ilondagi faoliyati, Toshkentdagi faoliyati, chet ellardagi faoliyati, she'riyati, ijodida muhabbat mavzusi, rus madaniyatiga munosabati, dostonlari, publitsistikasi

1 – asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Furqatning bolaligi, ilm tahsili, voyaga etgan oilasi, shuningdek, chet ellardagi faoliyati to'g'risida malumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Furqat voyaga etgan oila, uning bolaligi va bilim olishi haqida so'zlaydi.
- 1.2. Furqatning Toshkentdagi faoliyatiga baho beradi.
- 1.3. Shoirning chet ellardagi sayohatiga izoh beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Zokirjon Furqat 1858 yilda Qo'qon shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. Uning otasi Xolmuhammad sanat–adabiyot bilan qiziquvchi zamonasining peshqadam kishilaridan edi. Furqat boshlang'ich malumotni eski maktablardan birida oldi. U maktabda o'qib yurgan kezlarda sharq klassiklarining asarlarini zo'r maroq bilan o'qir edi. U, ayniqsa, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri A.Navoiyga zo'r muhabbat qo'ygan edi. Zokirjon Furqat o'zining sheriya sohasidagi dastlabki mashqlarini ham maktabda o'qib yurgan kezlarda boshlagan edi. Uning maktabda yozgan birinchi sheri quyidagi baytdan iborat bo'lgan:

Mening maktab aro buldur murodim,
Xatimdek chiqsa imloi savodim.

1870 yilda Zokirjon Furqat maktabni muvaffaqiyat bilan tugatgach, Qo'qon madrasalaridan biriga o'qishga kirdi. Zehnli va iste'dodli Zokirjon Furqat madrasada o'qitiladigan bilimlarni tezlik va osonlik bilan o'zlashtirib bordi. Furqat madrasada o'qib yurgan vaqtlaridayoq Hofiz, Bedil, Jomiy, Fuzuliy va Navoiylar ijodi bilan chuqur tanishgan va sharq poeziyasining boy ijodiy tajribasidan yaxshi xabardor edi. Biroq Zokirjon Furqatning madrasadagi o'qishi uzoq davom etmadi. 1875 yilda Qo'qon xonligida avj olib ketgan o'zaro urushlar tufayli madrasa yopildi. Furqat ham o'qishni to'xtatib, turmush ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Furqat bir necha yil Qo'qonda otasi yonida tirikchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgandan so'ng, 1878 yilda yangi Marg'ilonga tog'asi yoniga bordi va u erda bir necha yil savdo ishlari bilan band bo'ldi. Furqat 80-yillarning boshlarida Qo'qonga qaytadi va butunlay ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Furqatning Qo'qonda Muqimiy atrofida tashkil topgan adabiy harakatga qo'shilishi va unda aktiv ishtirok etishi shu vaqtlarga to'g'ri keladi. Furqatning o'z «Sarguzashtnoma»sida bergan malumotiga ko'ra bu paytda shoir 24 yoshlarda bo'lgan.

Furqat bu davrda kichik hajmdagi lirik sherlar yozish bilan birga badiiy tarjima bilan ham shug'ullanib, mashhur «Chor darvesh» qissasini forschadan o'zbekchaga tarjima qildi, Sharq adabiyotida keng tarqalgan mashhur syujetlardan ijodiy foydalanib ular asosida

«Hammomi xayol», «Nuh manzar» asarlarini yaratdi. Lekin Furqatning bu asarlari hozirgacha topilmagan.

Manbalardagi malumotlarga ko'ra, 80–yillarning oxirlarida Furqat Marg'ilonga borgan, u erda bir necha vaqt yashab, adabiy-ijodiy ishlar bilan shug'ullangan, olimlar bilan tanishib, o'z malumotini chuqurlashtirgan.

1889 yilda Furqat sayohat qilish maqsadida Marg'ilondan chiqib Qo'qon orqali Xo'jandga keladi. Furqat Xo'jandda bir necha vaqt yashagandan so'ng yana sayohatga o'tlanadi. U 1889 yilning iyun oyida Toshkentga keldi va bu erda qariyb ikki yil turib qoldi. Bu davr Furqat hayoti va ijodiy takomilida muhim rol o'ynadi.

Furqat Toshkentdagi «Ko'kaldosh» madrasasidan bir hujra olib, shu erda yashay boshladi. Furqat Toshkentga kelgandan so'ng butun borlig'i bilan hayotga shung'idi va ijodiy ishga berildi. U o'z odatiga ko'ra mahalliy madaniyat namoyandalari – shoirlar, sanatkorlar va ilm ahllari bilan tanishdi, ular bilan suhbatlar, adabiy o'tirishlar, mushoiralar o'tkazdi, ijodiy hamkorlik qildi.

Toshkentda u «Turkiston viloyatining gazetisi» redaksiyasida va bosmaxonalarida bo'lib, matbaachilik ishlari bilan tanishdi. Gimnaziyada, rus-tuzem maktablarida bo'lib, yangicha usulda o'qish–o'qitish ishlarini ko'rdi, zamonaviy ilm va maorifdan xabardor bo'ldi. Teatrda kontsert tomoshalariga, klub va boshqa jamoat muassasalariga bordi. Shubhasiz, Furqat Toshkentda mahalliy madaniyat arboblari do'stlashgani singari, ilg'or rus madaniyati arboblari bilan ham tanishgan, do'stlashgan va hamkorlik qilgan.

Furqat 1891 yilning may oyida Toshkentdan chiqib, Samarqandga bordi. U erda do'sti, tarixchi olim Mirzo Buxoriy bilan uchrashib, bir necha vaqt yashadi, oradan ko'p o'tmay Furqat sayohat niyati bilan yana yo'lga tushdi. Shu bilan shoirning ikki yildan ko'proq davom etgan O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan sayohati boshlandi.

Furqat Samarqanddan Krasnovodsk orqali Bokuga bordi, undan Istanbulga o'tdi. Furqat 1891 yilning kuz va qish oylarini Istanbulda o'tkazib, 1892 yilning bahorida Arabistonga yo'l oldi. Shu yilning yoz oylarida Arabistondan Misrga, Bolgariyaga, Yunonistonga sayohat qildi. 1892 yilning kuz oylarida yana Arabistonga qaytdi, unda bir necha vaqt turib, o'sha yilning oktyabr oyida Hindistonga qarab yo'l oldi va Bombay shahriga borib tushdi. Furqat Bombayda Mavlaviy Ikromiddin ismli bir sayyoh bilan tanishdi va do'stlashdi. Shu ikki do'st Hindiston viloyatlariga sayohatga otlandi. Ular Sarandib, Kashmir viloyatlarini tomosha qildilar.

Furqat qish faslini Hindistonda o'tkazib, 1893 yilning boshlarida Hindistondan Tibet orqali Xitoyga o'tdi va Xo'tan shahriga keldi, unda bir necha vaqt yashab, Yorkent shahriga o'tdi va shu erda turg'un bo'lib qoldi. Shunday qilib, Furqatning ikki yildan ko'proq davom etgan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan sayohati Yorkentda tugallandi.

Shoir Yorkentda qariyb 16 yil umr kechirdi. Furqat bu erda Yonaxon ismli uyg'ur qiziga uylanib, undan uch farzand – Nozimjon, Hakimjon va Nodirjon ismli o'g'illar ko'rdi.

Furqat uzoq muddat chet ellarda yashagan bo'lsa ham, hech qachon o'z vatanini unutmad. U umrining oxirigacha qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon va boshqa shaharlardagi do'stlari bilan xat orqali aloqa qilib turdi, u «Turkiston viloyatining gazetisi» bilan ham o'z aloqasini uzmad. Uning sherlari, maqolalari, xabarlar bu gazeta sahifalarida bosilib turdi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Nima sababli shoir madrasadagi o'qishini to'xtatishga majbur bo'ldi?
- 1.2. Qo'qon adabiy muhiti yosh Furqatning shoir sifatida shakllanishida qanday tasir ko'rsatdi?
- 1.3. Nima uchun shoir chet ellarda yurishga va yashashga majbur bo'ldi?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Shoir lirikasi mavzular olami haqida tushuncha berish va dostonlarida qo'yilgan masalalarni izohlash.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Shoir shariyati haqida so'zlaydi.
- 2.2. Furqat dostonlarini tahlil qiladi.

2.3. Furqatning ilmiy asarlari va tarjimalariga izoh beradi.

2–asosiy masalaning bayoni:

Furqat adabiy merosining katta qismini uning shariyati tashkil etadi. Furqat mumtoz shariyatimizning mavjud shariy shakllaridan (gʻazal, muhammas, musaddas, masnaviy, tarjiband va boshqalar) mohirlik bilan foydalandi va ularning ajoyib, goʻzal namunalarini yaratdi.

Muhabbat mavzusi Furqat shariyatining asosini tashkil etadi. Shoir insonlarga goʻzallik va ulugʻvorlik bagʻishlovchi muhabbatni kuylaydi, muhabbat mavzusida yozgan asarlarida olijanob insoniy fazilatlarini va kechinmalarni ulugʻlaydi.

Furqat shariyatida yaratilgan ijobiy qahramon hayotni sevadi, hayot goʻzalliklaridan lazzatlanishga intiladi. Yor – mahbuba va uning husni latofati, nozu karashmalari haqidagi qoʻshiq shu hayot goʻzalliklarining timsoli sifatida maydonga keladi. Furqat shariyatida «Fasli navbahor», «Fasli guldir», «Bahor ayyomida», «Istar koʻngul», «Ul qaro koʻz» va shu kabi boshqa koʻp sherlarida hayot goʻzalligi tarannum etiladi.

Doʻstlar, ayshu taraf, fasli bahor istar koʻngul,
Har kuni sahroda sayri lolazor istar koʻngul,
Aylamak har sori ohular shikor istar koʻngul,
Kabik raftorin koʻrarga koʻhsor istar koʻngul.
Dogʻu xursand etgusi har neki bor istar koʻngil.

Furqat lirik qahramonining bunday «koʻngil istaklari» shoirning «Bahor ayyomida» sarlavhali gʻazalida ham oʻz ifodasini topgan.

Bahor ayyomida gulgash etarga bir chaman boʻlsa,
qilurga sharhi hol ahlu muhabbat ikki tan boʻlsa,
Boʻlut katrofishonu ruhafzo zabzar xandon,
Ariqlarning labida sabzivoru bir chaman boʻlsa.
Kishi tubiyu kafsali jannatu rizvonini ne qilsin?
Jahon ayvonida hosil bu yangligʻ anjuman boʻlsa.

Furqat muhabbat lirikasining koʻp va juda goʻzal namunalarini yaratdi. Mana yana bir misol:

Ul qaro koʻz koʻzlariga surma bejo tortadur,
Barqi andin dahr eli ortiqcha gʻavgʻo tortadur,
qoshlari ostida goʻyo ikki fatton koʻzlari
Ikki hindu bachadurkim, yondoshi yo tortadur.

Furqat poeziyasida tez–tez uchrab turadigan yuqori mahorat bilan yozilgan bunday joʻshqin sherlar shoir lirik qahramonining harakterli va etakchi xususiyatini belgilab beradi.

Bizgacha Furqatning uch dostoni – «Suvorov haqida», «Yunon mulkida bir afsona» va «Bir mojar» dostonlari etib kelgan.

«Suvorov xaqida» asari 1890 yilda Toshkentda yozilgan boʻlib, u 172 misradan iboratdir. Dostonning yozilishiga bevosita sabab boʻlgan hodisa 1890 yil 5 oktyabrda Toshkentdagi rus teatrida qoʻyilgan tomosha boʻldi. Rus dramaturglaridan N.Kulikovning «Suvorov qishloqda, Milanda va yaxshi ayollar orasida» nomli dramatik asarini sahnada koʻrgan Furqat undan qattiq tasirlanadi va uning mazmunini shariy shaklda bayon etib, «Suvorov haqida» poemasini yaratdi. Dostonda ulugʻ rus sarkardasi A.V.Suvorov hayotining soʻnggi yillariga oid epizodlar aks ettiriladi. Ekaterina II taxtining merosxoʻri Pavel I bilan A.V.Suvorov oʻrtasida chiqqan nizo natijasida A.V.Suvorovning surgun kilinishi, Napoleon Bonapart bosqinchiliklariga qarshi koʻtarilgan urush munosabati bilan A.V.Suvorovning yana lashkarboshi qilib tayinlanishi, uning rus askarlariga boshchilik qilib Frantsuz bosqinchilariga qarshi Italiyada Alp togʻlarida jang qilishi, shiddatli janglarda dushmani engishi va nihoyat tantana bilan Milan shahriga kirib kelishi kabi tarixiy voqealar doston mazmunini tashkil qiladi.

«Yunon mulkida bir afsona» masnaviy yoʻlida yozilgan boʻlib, bu doston 176 misra sherni oʻz ichiga oladi. Dostonda shoir chet ellarga qilgan sayohati davrida Yunonistonda bir qiz ogʻzidan eshitgan hikoyasini shariy shaklda bayon qiladi.

Shoir dostonning bosh qismida Yunoniston sayohatidan olgan taassurotlari haqida qisqacha so'zlagandan so'ng, qiz hikoyasini bayon etishga kirishadi:

Mening aslim erur ahli Itoliyo,
Iqomatgohim erdi shahri Rumo.

Dostonning bundan keyingi satrlarida qiz sarguzashtlari bayon qilinadi. qizning kasallanishi, doktorlar maslahati bilan daryo labida qasr bino qilinishi va bu qasrda qizning davolanishi; bu qizning sayohatga chiqishi va daryoga g'arq bo'lishi, uning baliqchi to'riga ilinib qutqarilishi, qiz hushiga kelgandan keyin o'z asli nasabini bildirishi, baliqchining qizni Rumoga olib kelib, uning o'z ota-onalari bilan topishtiruv doston voqeasining asosiy epizodlarini tashkil etadi. Dostonning oxirgi qismida ta'kidlanishicha, bir o'limdan qolgan qiz qolgan umrini sayohat bilan o'tkazishga jazm qilgan. U Italiyadan chiqib Yunonistonga keladi, bunda bir necha zamon yashab, Frantsiyaga, undan Rossiyaga borishni mo'ljallaydi.

Furqat 1891 yilda Toshkentda o'zining boshidan kechirganlarini, yani tarjimai holini yozib chiqdi. Bu asar «Turkiston viloyatining gazet»i sahifalarida (1891 yil yanvar – iyun sonlarida) bosildi. Avtobiografik xarakterdagi bu asar «qo'qondlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli, o'zi yozg'oni» deb atalgan bo'lsa ham, bu sarlavha asarga nom bo'la olmaydi. Shuning uchun uni Furqatning o'ziga asoslanib, «Sarguzashtnoma» deb atash to'g'riroq bo'ladi. «Sarguzashtnoma» memuar asar sifatida qimmatli malumotlarni o'z ichiga oladi. Bu asarda Furqat o'zining bolalik davridan boshlab 1891 yilgacha, yani Toshkentdan chiqib ketguncha bo'lgan davr ichida boshidan kechgan voqealar to'g'risida fikr yuritadi.

Furqat tarjimai holidan malumki, u o'z hayotining so'nggi yillarida Yorkentda tabobat, astronomiya ilmlari bilan qizg'in mashg'ul bo'lgan. Shoirning ijodiy merosi ichida uning mazkur ilmlardan chuqur xabardor bo'lganini ko'rsatuvchi dalillar bor. Furqatning etnografiya, tarix, shariyat sohalarida ham asarlar yozgani malum.

Furqat o'z «Sarguzashtnoma»sida 1875–76 yillarda qo'qon xonligida ro'y bergan voqealarni o'z ichiga olgan tarixiy asar yozganligini aytadi. Afsuski, bu asar hozircha topilgan emas.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar⁶.

Furqat ijodiy merosida yana to'rtta ilmiy asar uchraydi. Ularning uchtasi etnografik xarakterga ega bo'lib, ular «To'y tavsifi», «Gap tavsifida», «Aza tavsifi» deb ataladi. To'rtinchisi esa adabiyotshunoslik harakterida bo'lib, «Ilmi ash'orning qoidai avzoni» deb ataladi. Bu to'rt asar kichik hajmdagi risolalar bo'lib, ular shoirning Toshkentda yashagan davrida maydonga kelgan.

Furqat badiiy tarjima bilan ham shug'ullangan. U Sharq adabiyotining mashhur namunalaridan bir nechtasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Biroq, bu tarjimalar hozirgacha topilgan emas. Furqat o'z «Sarguzashtnoma»sida quyidagi kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilganligini aytadi:

1. «Hamomi xayol», shariy tarjima.
2. «Chor darvesh», forschadan proza yo'li bilan o'zbekchaga tarjima.
3. «Nuh manzar». Bu haqda Furkat: «Nuh manzar nom bir kitobni turki manzuma ayladim», - deb yozadiki, bundan Furqatning bu asarni erkin tarjia qilgani malum bo'ladi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Muhabbat mavzusi Furqat she'riyatida qanday o'rin tutadi?
- 1.2. Shoirning marifatparvarlik ruhidagi qanday asarlarini bilasiz?
- 1.2. Shoir qanday ilmiy asarlar muallifi? Izoh bering.
- 1.3. Furqat qaysi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: FURQAT LIRIKASI

⁶Yuri Bregel. AN HISTORICAL ATLAS OF CENTRAL ASIA. BRILL LEIDEN • Boston/2003. 1405-1468: the Timurids, Moghuls, and Özbeks. 46-66 –bb.

Darsning maqsadi: Shoirning adabiy merosi, lirikasining o'ziga xos jihatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Furqatning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlariga tavsif beradi.
- 1.2. Shoir dostonlarini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: Furqatning nashr etilgan kitoblari, ijodi to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Furqatning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini sharhlang.
3. Furqat dostonlarida ko'tarilgan ijtimoiy masalalarga izoh bering.
4. Furqatning chet ellarga bo'lgan sayohatining asosiy sabablarini aniqlang.
5. Shoirning «Sarguzashtnoma»siga xos xususiyatlarni o'rganing.

Kerakli adabiyotlar:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Toshkent, 1959 yil.
2. Zokirjon Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik. Toshkent, 1991 yil.
3. A.Abdug'afurov. Furqat. Toshkent, 1977 yil.
4. Sh.Yusupov. Furqat yo'llarida. Toshkent, 1984 yil.
5. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

Darsning maqsadi: Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi tarixi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Turkistonda jadidchilikning ma'rifiy-islohotlar davri xususida ma'lumot beradi.
- 1.2. Jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davriga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Turkistondagi jadidchilik harakati va jadid adabiyoti to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish tarixi haqida ma'lumot bering.
2. Turkistonda jadidchilik harakatining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiling.
3. Jadidlarning milliy matbuot yuzaga kelishidagi xizmatlariga baho bering.
4. Jadidchilik davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
5. Yangi milliy teatrlarning vujudga kelishi omillarini izohlang.

Kerakli adabiyotlar:

1. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003.
2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., 1999.
3. Sh.Rizaev. Jadid dramalari. T., 1993.
4. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2005.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI FURQAT LIRIKASI

1-topshiriq. Furqatning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Furqatning yangicha ma'rifatparvarlik mavzusidagi g'azal va manzumalarini sharhlang.

2-topshiriq. Furqat dostonlarini tahlil qilish.

- 2.1. «Suvorov haqida» dostonining yozilish sabablariga izoh bering.
- 2.2. «Yunon mulkida bir afsona» va «Bir mojarro» dostonlarida ko'tarilgan masalalarga baho bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. Toshkent, 1959 yil.
2. Zokirjon Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik. Toshkent, 1991 yil.
3. A.Abdug'afurov. Furqat. Toshkent, 1977 yil.
4. Sh.Yusupov. Furqat va Xudoyorxon. Toshkent, 1995 yil.
5. G'.Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975 yil.
6. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004 yil.

GLOSSARIY

Drama – (Драма, drama) yunoncha drama – harakat. Badiiy adabiyotning uchta turidan biri. Dramaning tasvir predmeti harakat bo'lib, tragediya, komediya, drama uning janrlaridir. Sahnada ijro etish uchun mo'ljallab yaratiladi. Dramaning asosiy nutq shakli dialog bo'lib, personajlarning monologik nutqi ham diologik asosga ega bo'ladi.

“Dialog” (Диалог, Dialogue) yunoncha so'z bo'lib, “gaplashish, suhbat” demakdir. Dialog adabiy-badiiy matn komponenti bo'lib, u asardagi personajlarning nutqiy berilgan o'rinlaridir. Hozirgi zamon prozasi matni rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi. Suqrot, Aflotun singari yunon mutafakkirlarining ayrim asarlari bir necha kishining muayyan masalalar suhbatidan iborat. Fitratning “Munozara”, “Bedil” asarlari ham shunday. Bu kabi dalillar dialog ikki yoki undan ko'p kishining muloqoti bo'lishi barobarida falsafiy-publitsistik yo'nalishdagi alohida janr ekanligini bildiradi.

Estetik ideal (Эстетик идеал, Aesthetic ideal) (yunoncha idea so'zidan – tasavvur, tushuncha) – estetika, jumladan, adabiyoshunoslikning muhim ilmiy kategoriyalaridan biri, go'zallik, estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami

Erkin she'r (Свободный стих, Free verse) – rus she'riyatidagi sillabo-tonik (bo'g'inlar miqdori va bo'g'inlarning urg'uli-urg'usizligi) she'r tizimi asosida paydo bo'lgan misralardagi stopalar soni har xil bo'lgan she'r shakli. Erkin she'rda misralardagi bo'g'inlar soni, ularning o'zaro qofiyalanishi qat'iy tartibda bo'lmaydi. Ammo she'r davomida o'lchovda teng va o'zaro qofiyadosh misralar erkin tarzda takrorlanadi. O'zbek she'riyatida erkin she'r o'tgan asrning 20-30-yillarida paydo bo'lgan. “Stopa” yunoncha so'z bo'lib, “oyoq, tovon” demakdir. Qadimda she'r ritmi oyoqni ko'tarib-tushirish orqali belgilangan. Ya'ni qisqa hijoda oyoq tovonni yerdan uzilib, cho'ziq hijoda yerga urilgan. Stopa – cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibdagi guruhi, ularning takrorlanishi hisobiga muayyan o'lchovdagi ritmning yuzaga kelishidir. Stopa mohiyatiga ko'ra aruz she'r tizimidagi rukn bilan o'xshashdir. Sillabo-tonik she'r tizimida beshta stopa (rukn) mavjud bo'lib, ular: xorey (– V), yamb (V –), doktil (– VV), anapest (VV –) va amfibraxiy (V – V). Bunda urg'uli bo'g'in shartli belgisi – , urg'usiz bo'g'inniki V.

MAVZU: ZAVQIY

Mavzu rejasi:

1. Zavqiy lirikasi
2. Shoirning «Sayohatnoma» va dostonlari

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Lirikasi, muhabbat mavzusidagi g'azallari, hajviyoti, mutoyiba sherlari, dostonlari, «Sayohatnoma»lari

1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Shoirning hayoti va ijodi, shariyatining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish hamda g'azallaridan namunalar tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Zavqiyning tarjimai holini suzlaydi.
- 1.2. Muhabbat mavzusidagi g'azallarini tahlil qiladi.
- 1.3. Shoirning mutoyiba she'rlari va hajviyotiga baho beradi.

1-asosiy masalaning bayoni:

Zavqiy taxallusi bilan shuhrat topgan Ubaydulla usta Solih 1853 yilda Qo'qonda Shayxon mahallasida kosib-hunarmand oilasida tug'ildi. Zavqiy eski maktabda xat-savodini chiqarganidan so'ng, taxminan, 1870-71 yillarda madrasaga o'qishga kirdi. Lekin oradan ko'p o'tmay, ikki oyog'i shol bo'lib, o'tirib qolgan otasini boqish, oilani tebratish zaruriyati tug'ilgani uchun u 1874 yilda mahsido'zlik bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi.

Zavqiyning qachondan boshlab sher yozishga kirishgani malum emas. Shubhasiz, u madrasada o'qib yurgan kezlarda unda shariyatga havas uygongan bo'lishi mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmida ham qo'qon Farg'ona vodiysidagi adabiy markaz sifatida o'z ananalarini davom ettirib kelar edi. Zavqiy bu adabiy markaz shoirlari bilan tanishadi, ular bilan hamkorlik qila boshlaydi.

1898 yilda Zavqiyning oilaviy hayotida bir qancha baxtsizliklar ro'y beradi: uzoq vaqt betob yotgan otasi va ikki ukasi vafot etadi. Xotini Tojibibining ham ikki ko'zi ojiz bo'lib o'tirib qoladi. Shuning uchun shoir bu baxtsizliklarni unutish maqsadida Muqimiy bilan birga Farg'ona bo'ylab sayohatga chiqadi. Ikki shoir Andijonga, undan O'shga o'tadilar.

1900 yilda Zavqiy tog'asi Muhammad Siddiq bilan birgalikda Arabistonga sayohat qiladi. Bu sayohatdan 1903 yilning yoz oylarida o'z vatani qo'qonga qaytib keladi. Zavqiy Arabiston sayohatidan keyin umrining oxirigacha Qo'qonda yashab, ijod qildi.

Zavqiy o'ziga xos uslubda hajviy asarlar yozishni zo'r mahorat va jurat bilan davom ettirdi. Bu jihatdan 1905–1906 yillar atrofida yozilgan «Ahli rasta hajvi» satirasi xarakterlidir. Unda Qo'qondagi rasta ahllari tanqid qilinadi. Rasta boyonlari «Ahli rasta hajvi» satirasi elon qilinganidan keyin shoirni taqib etishga kirishadilar, odam yollab, qo'lga tushirib urdirmoqchi bo'ladilar. Ish shahar mahkamasigacha borib etadi; shoir tergov qilinib ayblanadi va sher yozib obro'li kishilarni tanqid qilgani uchun unga 100 so'm jarima qilinadi. Shoirning sog'-salomat qutilib ketganidan xavotirda qolgan rasta boyonlari endi uezd hokimiga arz qilib chiqadilar. Uezd hokimi shoirni tergovga chaqirib, qattiq ogohlantiradi, hajviyalar yozishni ta'qiqlaydi. Lekin shoir bunday taqiblar va do'qlardan qo'rqmaydi, aksincha, hokim guruhiga xitobon «Talading baring» nomli hajviy sherini yozadi.

Zavqiy ijodini uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Zavqiy ijodining ilk davri. Bu davr shoirning adabiyot olamiga kirganidan boshlab, 80-yillarning boshlarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

2. Zavqiy – demokrat shoir. Zavqiyning bu davrdagi faoliyati XIX asrning 80–yillari o‘rtalaridan Fevral va Oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

3. Zavqiyning Fevral va Oktyabr to‘ntarishlari davridagi ijodi. Bu davr 1916 yildan shoir hayotining oxirigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi.

Muhabbat mavzusida Zavqiy jozibali va unutilmas sherlar yozdi. Zavqiy ijodidagi muhabbat lirikasining eng yaxshi namunalari «Kelmasa kelmasun, netay?», «Bodai vasling», «g‘orat etding» g‘azallari shular jumlasidandir.

Zavqiy she‘riyatidagi siyosiy lirikaning namunalari sifatida «Demish xon», «Ajab ermas» va «Farg‘ona» she‘rlarini ko‘rsatish mumkin.

Zavqiy asarlarining muhim qismini uning hajviyoti tashkil etadi. Zavqiy satiralarining ma‘lum bir qismi shoir hayot kechirgan davr va uning kirdikorlariga bag‘ishlangandir. «Zamona kimniki?», «Dar mazammati zamona», «Bo‘l», «Muncha ko‘p» she‘rlari ana shunday satiralar jumlasidandir.

«Veksel» sheri muhammas shaklida yozilgan bo‘lib, u Zavqiy bilan Muqimiyning birgalikdagi ijodiy mahsulidir, to‘g‘rirog‘i, Zavqiy g‘azaliga Muqimiy bog‘lagan muhammasdir. Unda Farg‘ona vodiysida endigina rasm bo‘layotgan qarz berib veksel olish, shu yo‘l bilan oddiy dehqon, kosib va hunarmandlarni iqtisodiy qullik girdobiga tortish usuli haqida fikr yuritiladi. Veksel va uning oqibatlarini turmushda yaxshi kuzatib borayotgan shoirlar uning kosib – hunarmand xalqqa keltirayotgan kulfatlarini birma – bir ko‘rsatib beradilar:

Diqqat ham sotolmay, yo bir nima olurga,
qassob etti o‘zni go‘sht o‘rniga tilurga,
Solgan quloqlarini el, gap nedur bilurga,
Bozor ahli hayron savdo – sotiqliq qilurga,
Suyi samoga yig‘lab kosib fig‘oni chiqdi.

«Hajvi Yigchi eshon» sheri yigirma bir baytdan iboratdir. Asar 1898 yili Andijonda yozilgan bo‘lib, mashhur Dukchi eshon qo‘zg‘olonini hajv qilishga bag‘ishlangan. Zavqiy bu voqeani «Farg‘onaning sho‘rishi», yani baxtsizligi deb hisoblaydi, Dukchi eshonni esa xalq o‘rtasida «Vabo paydo qiluvchi ofat» deb ataydi. Sher boshdan oyoq Dukchi eshonga lanat yog‘diruvchi misralardan tashkil topgan. Zavqiy mazkur qo‘zg‘olonning mohiyatini to‘liq anglab etmadi, uning maqsadi erk uchun, mamlakat mustaqilligi uchun olib borilayotgan kurashdan iborat ekanligini his qila olmadi va natijada mana shunday rus mafkurasini quvvatlovchi asar yuzaga keldi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Zavqiy hajviyotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Shoirning «Hajvi ahli rasta» asarida qanday muammolar ko‘tarilgan?
- 1.3. Mutoyibalar Zavqiy ijodida qanday ahamiyatga ega?

2– asosiy masala bo‘yicha darsning maqsadi:

Zavqiy «Sayohatnoma»lari haqida malumot beradi hamda dostonlarida ko‘tarilgan muammolarni izohlaydi.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 2.1. Shoir «Sayohatnoma»larida tabiat manzaralari, qishloq amaldorlari va mehnatkash xalq ahvolinining tasvirlanishi haqida so‘zlaydi.
- 2.2. «Voqeai qozi saylov» asarida ko‘tarilgan muammolarni tushuntiradi.
- 2.3. «Qahatchilik» dostonida ijtimoiy hodisalarning aks ettirilishiga baho beradi.

2-asosiy masalaning bayoni:

Zavqiydan bizgacha uchta «Sayohatnoma»: «Suv janjali», «Obid ming boshi haqida hajv» va «Shohimardon xotirasi» nomli asarlar etib kelgan. Ayrim malumotlarga ko‘ra, Zavqiy Arabistonga borgan chog‘ida ham sayohatnoma yozgan, lekin bu sayohatnomaning taqdiri nomalum bo‘lib undan parchalargina saqlanib qolgan:

Yofasi, quddusi yo‘li,
Mavsumi bir bahor ekan,
Mevasi po‘rtaxol ila,

Anjiru limuzor ekan.

«Suv janjali» sayohatnomasi olti band, 24 misradan iboratdir. Sayohatnomada suv muammosi to'g'risida fikr yuritiladi. Karim bobo qishlog'ining mirobi pora bergan boylarga suv berib, dehqonlar erini suvsiz qoldirgani juda ravshan tasvirlanadi:

Borganda peshvoz qo'y so'yib,
Hoji mirobga to'n qo'yib,
Kunlar o'tar shu xil tuyib,
Ko'ngillari xushhol ekan.
Xoh rozi, xoh bo'lsin xunob,
Yurt – elga suv bermay mirob,
Hoji erin qilmish serob,
Dehqon uchun qattol ekan.

«Obid ming boshi haqida hajv» sayohatnomasida bo'lis boshlig'i bo'lib turgan mingboshi – Obid mingboshining kirdikorlari haqida hikoya qilinadi:

Hayhot, eshitsangiz ulus,
Obid degan qaynar bo'lis,
Mansab esiz, xayfi julus,
Badlafzu, badguftor ekan.

Zavqiyning Karim bobo qishlog'idagi erining atrofi o'ralmagan bo'lib, u erga boyning chorvasi tushib payhon qiladi. Shoir Obid mingboshiga shikoyat qiladi, lekin boy tomonidan og'zi moylangan mingboshi Zavqiyning mahkamadan haydab chiqaradi. Bu voqeadan so'ng yuqoridagi avtobiografik malumotlarni o'z ichiga oluvchi hajviy yunalishdagi sayohatnoma vujudga keladi.

«Shohimardon xotirasi» sayohatnomasi 1898 yilda Zavqiyning Shohimardonga qilgan sayohati davrida yozilgan. Unda shoir Shohimardon tabiati, go'zal manzaralari va boyliklari haqida fikr yuritadi:

Sahni ajoyib xush havo,
Ham ruhparvar, jonfizo,
Xushbo'y ko'ringan har giyoh,
Jambil bilan rayhon ekan.

Zavqiydan ikki doston etib kelgan bo'lib, ulardan biri «Voqeari qozi saylov» deb ataladi. Doston 65 bayt, 130 misradan iborat bo'lib, saylov mavzusida yaratilgan. Dostonda tasvirlanishicha, qo'qonning Xo'jand dahasi qoziligiga saylov elon qilingach, mansab talashish hangomasi boshlanib ketadi. Raqobatchilar orasida ikki davogar ajralib turadi, biri o'sha paytda qozilik qilayotgan mulla Kamol va biri sobiq qozi mulla Hakimjonlardir. Mulla Kamol o'n ming qarz ko'tarib, kattalarga pora berishga harakat qiladi. Sobiq qozi Hakimjon ham qarab turmaydi. Ular o'rtasidagi tortishuv tarafma – taraf bo'lib, mushtlashishgacha borib etadi. Lekin ishning tizgini shahar hokimi Medinskiy qo'lida edi. Medinskiy qozilikka mulla Hakimjonni belgiladi, chunki Zavqiy tabiri bilan aytganda u ilgariroq hokimlar bilan «ishni pishitib» qo'ygan edi.

Shoir dostonni quyidagi misralar bilan tugatadi:

Bu voqea, Zavqiy, emas yolg'on,
Mullo Kamol bo'lur shohidu burhon.

«Qahatchilik» dostoni 1916 yilda yozilgan bo'lib, 46 bayt, 92 misradan iboratdir. Dostonda birinchi jahon urushi natijasida vabo va ochlik, qahatchilik azobiga giriftor bo'lgan Qo'qon xalqining 1916 yildagi norozilik g'alayoni tasvir etiladi.

Zavqiy doston voqeasini boshlashdan oldin o'sha davr hayotiga umumiy tavsif beradi:

Qahatchilik bo'ldi bu Farg'onamizda,
Topilmas parcha non vayronamizda,
Payg'ambar bo'lsa non, osh – avliyodur,
Yana ochlik davosiz bir balodur.

Xalq g'alayonini tasvirlash doston markazini tashkil etadi. Bu voqealarda shoir kuzatuvchilik rolini o'ynaydi. g'alayonchilar hukumat mamurlaridan non talab qilar edi:

Hamma shovqun solib, kim yuldi sochin,
Dedilar: «Barchamiz och, qil ilojin».
Bu yanglig' xor bo'lgaymu odamzod,
Agar qodir esankim, ayla imdod...

Xalq chor hukumati tomonidan harbiy kuch bilan qarshi olinadi. Doston zamonadan shikoyat motivi bilan tugaydi:

Ne bo'lgay erdi kajdor, ey zamona,
Muruvvat aylasang topib bahona.
g'ariblarning murodin hosil etsang,
Faqat kut – loyamutga vosil etsang...

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Nima uchun sayohatnoma «Suv janjali» deb atalgan?
- 2.2. «Obid mingboshi haqida hajv» asarida qanday illatlar qoralangan?
- 2.3. Zavqiy dostonlari XV asrda yaratilgan dostonlardan nimasi bilan farq qiladi?

Adabiyotlar:

1. Zavqiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958 yil.
2. Razzoqov H. Zavqiy. Hayoti va ijodi. Toshkent, 1955 yil.
3. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975 yil.

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: ZAVQIY LIRIKASI

Darsning maqsadi: Zavqiyning adabiy merosi, hajviyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlariga tavsif beradi.
- 1.2. Zavqiy dostonlarini tahlil qiladi.

Kerakli jahozlar: Zavqiyning nashr qilingan adabiy merosi namunalari, shoir ijodi to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Zavqiyning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Shoirning hukmron tabaqa vakillari bilan bo'lgan munosabatini o'rganing.
3. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini sharhlang.
4. Zavqiy dostonlarida ko'tarilgan ijtimoiy masalalarga izoh bering.
5. Zavqiy «Sayohatnoma»larining Muqimiy «Sayohatnoma»laridan farqli jihatlarini aniqlang.

Kerakli adabiyotlar:

4. Zavqiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958 yil.
5. Razzoqov H. Zavqiy. Hayoti va ijodi. Toshkent, 1955 yil.
6. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975 yil.
7. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI

Darsning maqsadi: Behbudiyning o'zbek matbuotini rivojlantirishdagi xizmati va uning publitsistikasi to'g'risida tushunchalar hosil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Behbudiyning va Turkiston milliy matbuoti masalalariga tavsif beradi.
- 1.2. Behbudiyning maqolalarining bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: Behbudiyning nashr etilgan maqolalari, «Padarkush» dramasi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Behbudiyning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Behbudiyning jadid maktablari rivojida xizmatlariga baho beradi.
3. Behbudiyning tarixiy yo'nalishdagi maqolalarini tahlil qiladi.

4. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi maqolalariga izoh beradi.
5. Behbudiyning til, adabiyotva san'at muammolariga bag'ishlangan maqolalarini o'rganadi.

Kerakli adabiyotlar:

1. Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999 yil.
2. B.Qosimov. Maslakdoshlar. Toshkent, 1994 yil.
3. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999 yil.
4. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI **MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ LIRIKASI**

1-topshiriq. Feruzning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiling.
 - 1.2. Feruz lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
- 2-topshiriq.** Feruzning san'at va adabiyot ahliga bo'lgan munosabatini tahlil qilish.

- 2.1. Feruz shohligi davrida qaysi san'at turlariga e'tibor kuchaydi? Izoh bering.
- 2.2. Feruz davrida Xorazm adabiy muhitidagi yuksalishlarni tahlil qiling.
- 2.3. «Majmuat ush-shuaro» tazkirasining yaratilishida Feruzning xizmatlariga baho bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Feruz. Elga shohu ishqqa qul. Toshkent, 1994 yil.
2. D.Rahim, Sh.Matnazar, N.Jumaxo'ja. Feruz. Toshkent, 1995 yil. N.Jumaxo'ja. Feruz – madaniyat va san'at homiysi. Toshkent, 1995 yil.

GLOSSARIY

Epik, epos (Эпик, Epos) – yunoncha epos rivoyat, hikoya. Badiiy adabiyotning uchta turidan biri. Eposning asosiy xususiyati voqyeabandlik bo'lib, unda muayyan zamon va makonda kechgan voqyea-hodisalar bayon qilinadi. Epik turdagi asarlar hayotni badiiy qamrab olish ko'lamiga ko'ra janrlarga ajratiladi. Hikoya janrida qahramon hayotidagi birgina voqyea ifodalansa, qissa janriga mansub asarda uning hayotidagi muayyan bosqich ifodalanadi. Romanda esa qahramon hayotidagi katta davr tasvirlanadi.

Fantastika (Фантастика, Fantastic) – yunoncha phantastika – xayol-tasavvur. Hayotda mavjud bo'lmagan, xayol-tasavvurda yaratilgan narsa-hodisalar tasviri. Yuksak darajadagi shartlilikka asoslanadi. Fantastika faqat xayol mahsuli emas. Unda hayotda mavjud voqyealarning ayrim jihatlari sezilib turadi. Xayoldagi voqyelik mavjud hayot voqyeligiga asoslanadi.

Fabula (Фабула, Plot) (lotincha fabula – hikoya, masal) – ayrim manbalarda syujet terminining sinonimi sifatida qo'llanadi. Ba'zilar voqyealarning hayotda qanday kechgan bo'lsa, aynan o'shanday, hyech qanday o'zgartirmasdan aks ettirilishini fabula desa, ayrimlar syujet uchun asos bo'lgan hayotiy voqyelikka fabula, deydi. Arastu asarda hikoya qilinadigan voqyealarni “mif” yoki “tarix” degan. Qadimgi rimliklar esa ularni “fabula” deyishgan. XVII asrda fransuz klassitsizmi nazariyotchilari asarda qalamga olingan voqyealarni “syujet” deb atashgan. XX asrda rus formal maktabi vakilari fabula – asarda tasvirlangan voqyealarning hayotda yuz berish tartibidir. Syujet esa voqyealarning asarda naql qilinish(joylashtirilish) tartibidir, deyishgan.

Filologiya (Филология, Filologue) - grekcha so'z bo'lib, philo - *sevaman*, logos - *so'z, bilim* demakdir.

MAVZU: ANBAR OTIN

Mavzu rejasi:

1. Shoiraning hayot yo'li
2. Anbar otin lirikasi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Ilm o'rganishi, Dilshod otinning shoiraga bergan bahosi, shariyati, lirikasida sof sevgining tarannum etilishi, ijodida ijtimoiy-siyosiy mavzu, shariyatida hajviy yunalish, «Qoralar falsafasi» asarida falsafiylik

1 – asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Anbar otinning yoshligi, ilm olishi, oilasi to'g'risida talabalarda tasavvur uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Anbar otinning yoshligi to'g'risida so'zlaydi.
- 1.2. Shoiraning ilm o'rganishi haqida malumot beradi.
- 1.3. Shoiraning Zohidxo'ja bilan birga bo'lgan oilaviy hayotiga izoh beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Anbar otin 1870 yilda Qo'qonda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Anbarning otasi Farmonqul asli Marg'ilonlik bo'lib shoir Uvaysiyning nabirasidir. Onasi Ashurbibi esa qo'qonlik Abdulg'ani ismli kosibning qizi bo'lgan.

Farmonqul, taxminan, 1865-66 yillarda Marg'ilondan Qo'qonga kelib qolgan va shu erda uy-joy qilib, turg'un bo'lib qolgan. Shoir tarjimai holida quyidagilarni yozadi:

Otam – Farmonquliyi Marg'iloniy,
Onam – Ashurbibiyo qo'qoniy.
Alar belboqchi – bo'zchi erdi kasbi,
Hamisha makkayidin erdi noni,
Kim «bo'zchi yalchimas belboqqa» doim,
Yana juft bo'lmas erdi chaponi.

Anbar otin ulg'aygach, uni qizlar maktabiga beradilar. Anbar shoir Dilshod otin qo'lida tahsil oladi. Dilshod otin o'zining «Tarixi muhojiron» («Muhojirlar tarixi») asarida Anbar otin nomini alohida diqqat va e'tibor bilan tilga oladi:

«Anbar otin bug'doy rang, sunbo'l soch, o'hu ko'z, oy yuzli, axloqi hamda va odobi pisandida sohibidur... Umidim borki, bu qizcha katta shoir bo'lgusi».

Anbar otin O'rtepalik Zohidxo'ja ismli kishiga turmushga chiqqan va to'rt farzand ko'rgan.

Mani farzandlarim to'rt bo'ldiyu, bas
Mo'minxo'jam edi andak yomoni.
Bibixon – rohati jonim, anisim,
g'ariblik, dardmanlik darmoni...
Yotib qoldim, murabbim bo'ldi shu qiz,
Aning birla topib jonim omoni,
Usmonxo'ja – halimu qobilimdur,
O'qitdi ustod Xayrullaxoni.
Mani dardimga qo'shdi ming alamlar
Vafot etgan qizim ul Ominaxon.

Ko'rinib turibdiki, Anbar otinning ikki o'g'li, ikki qizi bo'lgan, qizlaridan biri Ominaxon shoir hayot vaqtidayoq vafot etgan.

Shoiraning qachon vafot etgani haqida ma'lumot yo'q. Uning «Falsafai siyohon» asari 1910 yilda yozilgan. Boshqa sherlarida ifoda qilingan mazmunga qaraganda, u birinchi jahon urushi davrida hayot edi, ijod etardi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Shoir a yashagan davrdagi ijtimoiy muhit haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Dilshod otin shoir a xususida qanday fikrlar bildirgan?
- 1.3. Shoiraning farzandlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?

1- asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Anbar otin ijodining shakllanishi, adabiy merosi to'g'risida tasavvur hosil qilish va ijodidan namunalar tahlil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoiraning adabiy merosi haqida malumot beradi.
- 1.2. Anbar otinning hajviy sherlarni izohlaydi.
- 1.3. «Qoralar falsafasi» asarini tahlil qiladi.

2- asosiy masalaning bayoni:

Anbar otindan kichik hajmdagi sherlarni o'z ichiga olgan devon etib kelgan bo'lib, unda 90 ga yaqin ijod namunalari mavjud.

Anbar otin o'tmish adabiyoti va madaniyatiga hurmat bilan qaragan, o'tmishda yashagan ijodkorlardan o'rganishni talim olishni lozim deb bilgan.

Agar ustodi adabni izlasang, Anbar otin,

San Navoiy talimini doim mutolaa qil!

Shoir a o'z sherlarida hayot haqiqatlarini kuylashga, harakat qiladi, xalqqa xizmat qilish, xalq manfaati uchun kurashish kerakligi haqida fikr yuritadi:

Odamda bo'lsa gar yaxshi tilak,

Xalq uchun tebtartgusi doim bilak.

Yoki:

El g'amidin o'zgaroq o'lmas bu xat,

Shuncha qilsam bir yo'li bo'lmas g'alat.

Yo'llarimda jaru kuh, kiru qiyot,

Shul sabab yurganda qilgum ehtiyot.

Anbar otin shariyatida hajviy yo'nalish ham alohida ahamiyatga ega. Shoir a jamiyatdagi firibgarlik, adolatsizlik va uning illatlarini keskin tanqid qiladi, o'z manfaati yo'lida dinni niqob qilib olgan shu yo'l bilan islomni ham buzib ko'rsatayotgan kishilarni hajv ostiga oladi:

Qo'rqutma, ey shayx, mazlumlarni do'zax o'tidin,

Manga ayondur iblis makoni, makruhi zohid.

Nazm aylamakni gunoh deysiz Anbarga doim,

Nechunki nazmim tig'i kesadur firibi zohid.

Shoiraning «Qoralar falsafasi» asari falsafiy ruhga ega. Unda siyosiy-ijtimoiy va falsafiy masalalardan tortib, adabiy-ijodiy masalalar ustida bahs ochiladi va bu to'g'ridagi shoiraning qarashlari bayon qilinadi.

«Qoralar falsafasi» risolasi kichik muqaddima va to'rt fasldan tashkil topadi.

Birinchi fasl qora narsalar – qora baxt, qora niyat, qora tusli xalqlar tarifi–tavsifiga bag'ishlanadi. Shoir a tushunchasida bu dunyoni zulmat chodiriga burkab olgandir. qorong'ilik bosgan bu borliqda qaro baxt, qaro niyat va qaro fikr javlon uradi. qaro tunda qaro baxt hukmronlik qilgani shuki, mehnatkash xalq zulmga va jabru jafoga mahkumdirlar.

Ikkinchi faslda – onalar, onalik sharofati haqida so'z boradi. qaro farq egasi bo'lmish bu zot tabarruk va mo'tabardir. Shunday ulug' zot qaro zulmat hukmronlik qilgan shu zamonda sharaf–etibor topmagan, xor. Ularga bo'lgan etibor «chumoliga bo'lgan etiboridin ham kamroqdir».

Uchinchi faslda baxti qarolik nima, degan masala bayon qilinadi. Haqiqiy baxti qarolar shunday kishilarki, ular boylik orttirish uchun ming turli hiyla-nayrang ishlatadilar, qabih yo'llarga kiradilar, mehnat ahli hisobiga yashab, ular lanatiga uchrab umr o'tkazadilar.

To'rinchi fasl asarda bayon qilingan butun fikrlarning mantiqiy xulosasi bo'lib, hayotni qoplab olgan qaro zulmat to'g'risidagi mulohazalar, uni parchalab tashlash haqidagi g'oyalar bilan yakunlanadi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Shoiraning o'tmish adabiyotiga bo'lgan munosabati qanday edi?
- 2.2. Anbar Otinning hajviy sherlarida qanday muammolar ko'tarilgan?
- 2.3. Shoiraning pand-nasihat ruhida yozilgan sherlariga qanday baho berasiz?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: ANBAR OTIN LIRIKASI

Darsning maqsadi: Anbar otinning lirik merosi to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoiraning hajviy she'rlariga tavsif beradi.
- 1.2. Anbar Otinning didaktik ruhdagi she'rlarini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: Anbar otinning nashr qilingan kitoblari, «qoralar falsafasi» asari.

Ishni bajarish tartibi:

1. Anbar otinning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Shoira adabiy merosini ma'lum bir yo'nalishlarga ajratib o'rganing.
3. Hajviyot Anbar otin ijodida qanday o'ringa ega ekanligini aniqlang.
4. Shoiraning didaktik ruhdagi she'rlarini tahlil qiling.

Kerakli adabiyotlar:

1. Anbar otin. Sherlar. Risola. Toshkent, 1970 yil.
2. G'.Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975 yil.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 5-jild, Toshkent, 1980 yil.
4. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

Darsning maqsadi: Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi tarixi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.3. Turkistonda jadidchilikning ma'rifiy-islohotlar davri xususida ma'lumot beradi.
- 1.4. Jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davriga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Turkistondagi jadidchilik harakati va jadid adabiyoti to'g'risidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

6. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish tarixi haqida ma'lumot bering.
7. Turkistonda jadidchilik harakatining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiling.
8. Jadidlarning milliy matbuot yuzaga kelishidagi xizmatlariga baho bering.
9. Jadidchilik davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
10. Yangi milliy teatrlarning vujudga kelishi omillarini izohlang.

Kerakli adabiyotlar:

5. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., 1999.
7. Sh.Rizaev. Jadid dramalari. T., 1993.
8. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2005.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI KARIMBEK KAMIY LIRIKASI

1-topshiriq. Kamiyning lirik merosiga baho berish.

1.1. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil qiling.

1.2. Kamiy lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

2-topshiriq. Kamiy hajviyotiga tavsif berish.

2.1. Kamiyning hajviy she'rlarida qanday muammolar ko'tarilgan? Tahlil qiling. 2.2. Shoir hajviyotining o'ziga xosligi nimalardan iborat ekanligiga izoh bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Karimbek Kamiy. Dilni obod aylasang... Toshkent, 1998 yil.

2. A.Jalolov. O'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti. Toshkent, 1978 yil.

3.O.To'labov. Karimbek Kamiy. O'zbek tili va adabiyoti, 1993 yil, № 4.

4.O.Oltinbek. Garchi bilmaymiz hanuz kimdir Kamiy... Dilni obod aylangiz. Toshkent, 1998 yil.

GLOSSARIY

G'oya (Идея, idea) – badiiy g'oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan anglashiladigan, undan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. Asarda diqqat qaratilgan voqyea-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati, badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo'luvchi badiiy hukm, xulosa. G'oya mazmunning o'zak komponentidir. G'oya har qanday asarda mavjud. Har bir asarning g'oyasi mazmun-mohiyati, ko'lami, qamrovi, ifodalanish darajasi va boshqa jihatlariga ko'ra farqlanadi. Badiiy asar g'oyasi ijodkorning dunyoqarashi, maqsadi, o'zi qalamga olgan voqyelikka munosabati, qiziqishi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Har bir haqiqiy ijodkor esa borliqni o'zicha ko'rib, mavjud hayot voqyeligini o'zicha idrok etadi va unga munosabatini bildiradi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqyelik haqiqiy hayot voqyeliği emas, balki muallif ko'rolgan va idrok etgan voqyelikdir. Bir davrda, bir joyda kechgan voqyelikni har bir ijodkor asarida o'zicha aks ettiradi. Chunki hayot voqyeliği g'oyat murakkab va ko'p qirrali. U ijodkorlarning qalbiga turlicha ta'sir ko'rsatib, ongida turlicha aks etadi. Ijodkorning dunyoqarashi badiiy asar g'oyasini belgilovchi muhim omildir. Jamiyatdagi hukmron mafkura, ijtimoiy-siyosiy qarashlar ijodkorning dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Badiiy g'oya – individual hodisa. Lekin bu har bir ijodkor o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, asarida har qanday g'oyani ifodalashi, ilgari surishi mumkin, degani emas. Ijodkor avvalo qaysi ijtimoiy guruhdanligi, qanday ijtimoiy-siyosiy qarashning tarafdori ekanidan qat'i nazar, o'z asarida umuminsoniy qadriyatlarni yoqlashi shart

Hijo (Хижо, Hijo) arabcha so'z bo'lib, "to'g'ri o'qimoq" degan ma'noni bildiradi. Hijo – turkiy (o'zbek) aruzda eng kichik ritmik birlik, bir havo zarbi bilan aytiladigan tovushlr guruhi. Turkiy aruzda ritm she'r misralarida bir xil miqdordagi, bir xil tartibda guruhlangan qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning takrorlanishi asosida hosil bo'ladi. Birgina qisqa unidan iborat yoki qisqa unli bilan tugaydigan bo'g'in "qisqa hijo" deyiladi. Shartli belgisi: V. Undosh bilan tugaydigan yopiq yoki cho'ziq unli bilan tugaydigan ochiq bo'g'in "cho'ziq hijo" deb yuritiladi. Shartli belgisi: – . tarkibida cho'ziq unli bor yoki qo'sh undosh bilan tugaydigan bo'g'in esa "o'ta cho'ziq hijo"dir. Qisqa hijoga joylashgan o'rniga qarab, ikki xil tarzda, ya'ni: misra ichida kelsa: - V, misra oxirida kelsa: ~ belgisi qo'yiladi.

Mavzu (Тема, Theme) (arabcha so'z bo'lib, "qo'yilgan, tartibga solingan" degan ma'noni bildiradi) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, ma'navits-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda ikki ma'noda: asarda tasvirlangan hayot materiali hamda badiiy asarda idrok etish uchun qo'yilgan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmui. Asarda qalamga olingan voqyelik – hayot materialini "mavzu" deyish, e'tibor qaratilgan, mushohada yuritish uchun qo'yilgan masalalarni "mavzu" emas, "muammo", "problema" deyish to'g'ri bo'ladi. Chunki har qanday chinakam badiiy asar ijodkorning o'z davri, o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga munosabati, u xususidagi o'y-kechinmalari, tashvishi,

iztirobi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Ijodkor shaxs boshqalardan ko'ra mavjud hayot tartiblari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida ko'proq o'ylaydi, tashvish chekadi. Tabiatidagi ana shu xususiyat, fazilat uni asar (she'r, hikoya, roman, doston, drama, komediya, tragediya) bitishga undaydi. Asl asar ijodkordagi ichki zarurat – "ehtiyoj farzandi" (A.Oripov) sifatida yuzaga keladi. Ijodkor o'zini o'ylantirgan muammolarni badiiy idrok etish uchun hayot voqeyeligidan material tanlab, uni tasvirlaydi.

MAVZU: XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MADANIY VA ADABIY HAYOT

Mavzu rejasi:

XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot

1. Jadidchilik harakati

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Mustamlaka siyosatining kuchayishi, xalq ozodlik harakatlari, birinchi jahon urushi va Turkiston, jadidchilik harakati, Turkistonda jadidchilikning shakllanishi.

1 – asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy–siyosiy, madaniy va adabiy o'zgarishlar to'g'risida talabalarga malumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy–siyosiy hayot haqida gapiradi.
- 1.2. Mazkur davr madaniy hayotidagi o'zgarishlarni baholaydi.
- 1.3. Adabiy hayotga izoh beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy–siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Mustamlakachilik siyosati yanada kuchaydi. Turkistonning arzon ishchi kuchidan foydalanish va xomashyosini o'zlashtirish evaziga Rossiya jahon bozoriga chiqish va taraqqiy etgan mamlakatlar bilan raqobatlashuv harakati o'lkada kapitalistik munosabatlarning jonlanishiga olib keldi. Bu jarayonga erli xalq ichidan etishib chiqayotgan sarmoyadorlarning faollashuvi o'z tasirini ko'rsatgan bo'lsa-da, iqtisodiy turmushda, ishlab chiqarishda, sanoatda taraqqiyot aytarli ko'rinmadi. Chunki mustamlakachilik siyosati Turkistonda tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishidan manfaatdor emas edi. Turkiston Rossiyaga, asosan, xomashyo xazinasi sifatida kerak bo'lib, tayyor mahsulot masalasida unga doim qaram bo'lib turishi lozim edi.

Rossiyadagi 1905 yilgi inqilobiy harakatlar sadosi Turkistonga ham etib keldi. Toshkent, Samarqand, Qo'qondagi zavod-fabrikalar va temir yo'l ishchilari orasida ish tashlash, mitinglar bo'lib o'tdi. Aholi o'rtasida mustamlakachi amaldorlar va mahalliy boy mulkdorlardan haq-huquqni talab qilish, og'ir ish sharoiti, etishmovchiliklar, nohaqliklarga norozilik bildirish hollari ro'y berdi.

Asr boshi Turkistondagi siyosiy harakatlar, davatlar Rossiyadagi kabi siyosiy to'ntaruv emas, balki undan farqli o'laroq, mustamlaka va istibdoddan norozilik hamda milliy-ozodlik harakati tarzida namoyon bo'ldi. Samarqand atrofidagi Nomoz kabi xalq qasoskorlarining isyoni milliy-ozodlik harakatining o'ziga xos ko'rinishi edi. Rossyaning 1914 yildagi jahon urushiga tortilishi Turkiston xalqi boshiga ham musibatlar keltirdi. Ikki yil ichida er solig'i hunarmandlardan olinadigan soliq deyarli 2,5 barobar oshdi, salkam 100 ming ot, tuya, qoramol tekinga olindi. Xalqning 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan minglab farzandlari Nikolay podshoning amri bilan mardikorlikka yuborilib, ko'pdan ko'p oilalar boquvsiz qoldi.

Natijada juda ko'p joylarda g'alayonlar, qo'zg'olonlar bo'ldi. Bu davrda Turkistonga Rossiya ta'sirida ilm-fan, madaniyat, sanat, adabiyot, matbuot sohasida qator ilg'or zamonaviy yangiliklar (telefon, telegraf) ham kirib keldi.

Oktyabr to'ntarishiga qadar o'lkada qator rus-tuzem maktablari ochildi. Chor hukumati bularda erli xalq farzandlarini savodli-malumotli qilishdan ko'ra, ko'proq o'z farzandlarini o'qitishni ko'zlardi. Bunday maktablarda o'qigan tub joy aholi farzandlari oz bo'lib, ulardan ham Rossiya o'z manfaatlari yo'lida foydalanishini ko'zlagan.

Shunday sharoitda milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, ozodlik harakatlari kuchaydi. Bu harakat 1916 yilda avj pardasiga ko'tarildi. Samarqandda xalq harbiy gubernator uyi atrofida katta g'alayon ko'tardi. Toshkentda Beshyog'och dahasi aholisi eski shahar politsiya boshqarmasi idorasiga hujum qildi. To'ytepa, Pskent, Yangibozor dehqonlarning chor askarlari bilan to'qnashuvi ro'y berdi. Natijada Chor hukumati 1916 yilning iyulida Turkistonda harbiy holat elon qilishga majbur bo'ldi.

1917 yildagi fevral inqilobi Turkistonda ham kuchli aks sado berdi. Xalq bu to'ntarishga katta umidlar bog'ladi, biroq yanglishdi. Shunga qaramay, 1917 yil oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan muddatda Turkistonda milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, istiqbolga erishish qonuniy va siyosiy uyushgan bir qator harakatlar sodir bo'ldi.

Masalan, «Sho'roi ulamo» tashkiloti Toshkentda 1917 yil oktyabrda bo'lgan qurultoyida «Turkiston muxtoriyati»ni tasis etishga bir ovozdan qaror qildi va mustaqillik g'oyalarini ilgari surdi. Shu qurultoy hujjatlarida Turkiston hukumati o'z pulini chiqarishi, o'z qo'shinlari va o'z militsiyasiga ega bo'lishi huquqlarini qo'lga kiritish zarurligi haqida fikr yuritildi. Shu davr adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak, unda xalqni marifatga chorlovchi, jadidchilik g'oyalarini ilgari suruvchi asarlar bilan bir qatorda diniy yo'nalishdagi asarlar ham yaratildi. Vatanparvarlikka, milliy uyg'onishga chorlovchi ilg'or shoirlar bilan bir qatorda ananaviy ruhda o'rtamiyona sher yozuvchi shoirlar ham oz emas edi.

Ananaviy aruz vazni qatoriga barmoq vazni kelib qo'shildi. Og'ir zamonadan va chor istibdodidan norozilik ruhidagi folklor namunalar va xalq qo'shiqlari ko'paydi.

Sahna asarlari paydo bo'ldi. Xalq sahnada o'z dardi, muammolari, orzu-umidlari, ideallari badiiy talqini bilan yuzma- yuz uchrasha boshladi, bu o'zbek madaniyati uchun yangilik edi, adabiy tanqid jonlandi. Davr adabiyotida realistik, romantik, satirik yo'nalishlari paydo bo'ldi. Zamon, tuzum, mustamlaka siyosatidan norozilik kuchaya borib, hayotni o'zgartirishga chorlovchi asarlar ko'zga tashlandi Inqilobiy adabiyotning tug'ilishi shu davrga tug'ri keladi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Nima uchun XX asr boshlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosati yanada kuchaydi?
- 1.2. XX asr boshi Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari to'g'risida nimalar bilasiz?
- 1.3. Mazkur davr Turkiston madaniy hayotida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
- 1.4. Asr boshi o'zbek shariyati haqida nimalar bilasiz?
- 1.5. Mazkur davr adabiyotida qanaqa yangi janrlar shakllana boshladi?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Jadidchilik harakati tarixi va mazkur harakatning Turkistonga tasiri haqida tasavvur hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Jadid tushunchasi, mazkur harakat tarixi, maqsad va vazifalari to'g'risida so'zlaydi.
- 1.2. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishini izohlaydi.
- 1.3. Mazkur harakatning o'zbek adabiyotiga tasirini baholaydi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Jadidchilik harakati nima, u nega Turkistonda paydo bo'ldi, bu harakatning mohiyati, tarixdagi o'rni qanday? Jadidchilik harakati jahonshumul harakat kasb etganmidi?

Javobni bu savolning oxirgisidan boshlaylik: ha, jadidchilik malum ma'noda jahonshumul ahamiyat kasb eta olgandi. Bu fikrni isbotlash uchun gapni umuman insoniyat tarixining o'ziga xos taraqqiyot yo'liga qisqacha bo'lsa-da, to'xtashdan boshlash joiz.

Kishilik jamiyatining ko'p asrlik tarixi xilma-xil harakatlarni, talimotlarni, siyosiy oqim va firqalarni vujudga keltirdi. Buning asosiy sababi insoniyatning adolatli, azolarining tengligi asosiga qurilgan, insonparvar jamiyat yuzaga keltirish uchun tinimsiz izlanishi bo'ldi. Jumladan, XIX asrda g'arb mamlakatlarida boshqa talimotlar qatori marksizm talimoti ham yuzaga kelib, u insoniyatning orzusini amalga oshirishning ilmiy asoslarni ishlab chiqishga intildi. Bu talimotning poydevori etib sinfiy kurash nazariyasi olindi. Bu talimotning amalga oshishi o'zidan qonli iz qoldirdi. Oqibatda, u tarix sahnasidan surib tashlandi.

XIX asr Sharq esa, g'arbdan farqli o'laroq taraqqiyotning quyiroq darajasiga xos illat va zulmlarga qarshi kurashishi kerak edi. Feodal qolok Sharqni G'arbdagi mustabidlarga qaram bo'lishiga olib kelganidan milliy zulmdan qutilish uchun ozodlik kurashi asosiy hodisa hisoblanardi. Ozodlik mustaqillik, erkka feodal qoloqlik, jaholatdan qutilgandagina erishish mumkin bo'ladi. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim bo'lib, buni amalga oshiruvchilar qotib qolgan dakki kuchlarga, yani «qadim» (eski)larga qarshi turuvchi «jadid» (yangi)lar sifatida maydonga keldilar. Shu bois jadidlar Misrda ham Turkiyada ham Turkistonda ham siyosiy oqim sifatida paydo bo'ldi. To'g'ri, ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emasdi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkalar ham XIX asr oxiriga kelib milliy-ozodlik harakatlari oxir-oqibatda jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutilishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg'otish, millatning o'zligini anglab etishuviga erishishi lozim edi. Ana shunday fikrga birinchilardan bo'lib qrimlik Ismoilbiy Gaspirali kelgandi. XVI –XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir⁷.

U turkiy qavmlar, umuman musulmonlar birlashib katta kuchga aylangandagina Rossiya imperiyasi changalidan qutilishi mumkinligi, buning uchun asriy jaholatdan, feodal qoloqlikdan qutilib, dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko'tarilish lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Shu bois harakatni eng avvalo insonning dunyoqarashini, saviyasini shakllantiradigan talim – tarbiya tizimini isloh etishdan boshlash kerak, degan qat'iy qarorga kelgandi. Natijada, musulmon olamida yangi bo'lgan «usuli savtiya tadrijiya»ni joriy etishga kirishdi va kutilgan natijalarga erishdi. Bu usulni u Kavkazdagina emas, Turkistonda, Volga bo'yida ham joriy etishga tashviq qildi. Mazkur o'lkalarda ham uning tarafdorlari, izdoshlari yuzaga keldi. Turkistonda Behbudiy, Munavvar qori, Abdulqodir Shakuriy, A.Avloniy va boshqalar ularning hammaslarklari edi. Marksistik talimotdan farqli o'laroq, jadidchilik sinfiy mansublikka emas, dunyoqarashdagi mushtaraklikka, maslakdagi umumiylikka qarab shakllandi. Shu bois ijtimoiy kelib chiqishlari jihatidan ular turli tabaqa va toifalarga mansub edilar.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Dastlab jadidchilik harakati qaerda paydo bo'lgan?
- 2.2. Mazkur harakatning maqsad va vazifalari to'g'risida nimalar bilasiz?
- 2.3. Turkistonda jadidchilik harakati qachon shakllana boshladi?
- 2.4. Turkistonda jadidchilik harakatining keng miqyosda yoyilishida mahalliy xalqlardan kimlar faol rol o'ynadi?
- 2.5. «Usuli savtiya»ning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 2.6. Nima uchun jadidlar o'z faoliyatini talimni isloh qilishdan boshladi?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: ISHOQXON IBRAT

⁷Yuri Bregel. AN HISTORICAL ATLAS OF CENTRAL ASIA. BRILL LEIDEN • Boston/2003. 1405-1468: the Timurids, Moghuls, and Özbeks. 46-66 –bb.

Darsning maqsadi: Ibratning ijodiy merosi to'g'risida tasavvur hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Ibrat lirikasini tahlil qiladi.
- 1.2. Ibratning tarixshunoslik faoliyatiga baho beradi.
- 1.3. Ibratning ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyatini izohlaydi.

Kerakli jihozlar: Ibratning nashr qilingan kitoblari, «Tarixi Farg'ona» asari

Ishni bajarish tartibi:

1. Ibrat voyaga etgan oila va u yashayotgan ijtimoiy muhit haqida ma'lumot bering.
2. Ibratning ijodiy merosini batafsil o'rganing.
3. Shoirning lirik merosini tahlil qiling.
4. Ibratning tarixshunoslik yo'nalishidagi faoliyatiga tavsif bering.
5. Ibratning publitsistik va ilmiy faoliyatiga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003 yil.
2. Ishoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. Toshkent, 1991 yil.
3. Ibrat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999 yil.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: SIDQIY XONDAYLIQIY LIRIKASI

Darsning maqsadi: Sidqiy-Xondayliqiy lirikasi, she'riyatining g'oyaviy tematik doirasi haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlariga tavsif beradi.
- 1.2. Sidqiy-Xondayliqiyning ijodiy yo'nalishdagi adabiy merosiga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Sidqiy Xondayliqiyning nashr qilingan kitoblari, shoir ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Shoirning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil qiling.
3. Sidqiy Xondayliqiyning ijtimoiy yo'nalishdagi lirikasiga baho bering.
4. Sidqiy Xondayliqiyning tarjimonlik faoliyatiga tavsif bering.
5. Shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rniga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1998.
2. Sidqiy Xondayliqiy. Navbahor. Toshkent, 1994.
3. A. Jalolov. Inqilobiy davr o'zbek adabiyoti va Shavkat ijodi. Toshkent, 1987.
4. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

**MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI
MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA**

1-topshiriq. So'fizodaning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. So'fizodaning muhabbat mavzusidagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Shoirning ma'rifatparvarlik yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.3. So'fizodaning hajviy merosiga baho bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Haqiqatga xiyonat qilmagan shoir. So'fizoda. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999.
2. B. Qosimov. U.Dolimov. Ma'rifat darg'alari. Toshkent, 1990.
3. So'fizoda. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999.

GLOSSARIY

Ritm (Ритм, Rhythm) yunoncha soʻz boʻlib, “teng oʻlchovlilik” degan maʼnoni bildiradi. Ritm, keng maʼnoda muayyan boʻlaklarning maʼlum vaqt oraligʻida tartibli takrorlanib turishidir. Badiiy nutqning nasriy va sheʼriy shakllari ritm jihatidan farq qiladi. Nasrdagidan farqli holda sheʼriy nutq ritmi maxsus hosil qilinadi, muayyan oʻlchov (boʻgʻin, turoq, vazn, misra, band, qofiya) asosida tartibga solinadi. Ritm sheʼriy nutqning emotsionalligi, musiqiyli, jarangdorligining asosidir.

Rukn (Заголовок, Heading) – arabcha soʻz boʻlib, “ustun” demakdir. Rukn – aruzda juzv (turkiy aruzda hiyo)larning muayyan tartibda birikishidan hosil boʻluvchi ritmik boʻlak, juzv bilan bahr orasidagi ritmik birlik. Aruzda juzvlarning maʼlum tartibda qoʻshilishidan 8ta afoyl yoki asl ruknlar yuzaga keladi:

Shakl va mazmun (Форма и содержания, Form and Content) - voqea-hodisalarning tashqi koʻrinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantrish.

MAVZU: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

Mavzu rejasi:

1. Hayoti va faoliyati
2. Behbudiy – birinchi o'zbek dramaturgi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Talim olishi, jadidchilik faoliyati, pedagogik faoliyati, Behbudiy va milliy matbuot, Behbudiy o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, publitsistikasi

1 –asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Behbudiyning yoshligi, ilm tahsili, voyaga etgan oilasi haqida tushuncha berish hamda uning ijtimoiy–siyosiy faoliyatini baholash

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1.Behbudiyning yoshligi, ilm olishi, oilasi to'g'risida so'zlaydi.
- 1.2.Behbudiyning chet ellardagi faoliyatini o'rganadi.
- 1.3. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga baho beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Mahmudxo'ja 1875 yili Samarqand muzofatiga qarashli Baxshitepa qishlog'ida imom oilasida tug'ildi. Hoji Muin ibn Shukurullo Mahmudxo'janing nasl-nasabi Ahmad Yassaviyga borib tutashishini eslatadi. Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja ibn Solihxo'ja ibn Niyozxo'ja Behbudiyning ota-bobolari ilmi arabiya va diniyadan yaxshi xabardor kishilar bo'lib, qorilik, imomlik va xatiblik qilganlar. Tog'alari Muhammad Siddiq va Mulla Odil o'z davrining o'qimishli ilg'or ziyolilaridan bo'lib, Mahmudxo'ja taqdirida katta o'rin tutdilar. O'tkir zehqli Mahmudxo'ja katta tog'asi Chashmaob bo'lisining qozisi Muhammad Siddiq yordamida 6 yoshida savodini chiqardi, keyin kichik tog'asi mufti Mulla Odildan arab tili, diniy ilmlar va matematikani o'rgandi. U quronni to'la yod oldi, qorilik ham qildi.

Mahmudxo'ja 20 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. U tog'asi Muhammad Siddiqqa mirzolikka ishga kiradi. qozixonadagi ikki yillik xizmat uning uchun katta maktab bo'ldi. Muftilikka doir ilm, qonun-qoidalarini o'rgandi. Tog'asi qozilikdan ketgach, Kabud bo'lisining qozisi qo'lida mirzolik qiladi. Mahmudxo'ja fikhni, shariat ilmini shu qadar chuqur va puxta o'rganadiki, bir og'izdan o'z davrining eng kuchli, peshqadam muftisi, deb tan olinadi. Kabur bo'lisi qozixonasida bir necha oy ishlagach, muftilikka ko'tariladi. Bu erda uzoq yillar davomida (1916 yilgacha) ishlab, haqiqat, adolatni himoya qiladi.

Behbudiy Makka, Qohira, Istambulda (1900), keyinchalik Peterburg, Moskva, qozon, Orenburg, Boqchasaroy kabi shaharlarga safar qilgach (1903 -1904), dunyoqarashi yanada kengaydi, siyosiy, madaniy hayotdagi, texnika sohasidagi taraqqiyot omilini ilmda, maorif va madaniyatida, deb bildi. Ikkinchi bor sayohatga chiqqanda (1914) Turkiyadagi texnika bobidagi yangiliklarni havas bilan tariflaydi, Turkiston xalqining hayotidagi qoloqlikni afsus va izzat bilan tanqid qiladi.

Behbudiy chet ellarda bo'lganida ayniqsa maktab-maorif, talim-tarbiya ishlari, gazeta-jurnallar va nashriyot masalalari bilan astoydil shug'ullanadi, qiziqadi. Ayniqsa, Ismoilbek

Gaspiralining unga tasiri katta bo'ldi. Behbudiy Turkistonda jadidchilik g'oyalarini dastlabkilardan bo'lib targ'ib etdi. U Ismoilbek Gaspiralini uyda mehmon qilgan edi. Keyin 1914 yili hajga borayotganida Istambulda u bilan uzoq suhbatlashadi. Ismoilbek bu paytda Petrograddan shamollab kelgan, o'pkasi kasallangan va o'zi oriqlab ketgan ekan. Ular maktab, maorif haqida, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg'onadagi ahvol to'g'risidagi suhbatlashadilar.

Behbudiy masaladoshlaridan Abduqodir Shakuriy uchun o'z uyidan maktab ochib beradi, barcha moddiy jihatlarini ham o'z zimmasiga oladi, jo'g'rofiya, tarix, din tarixi, hisobdan dars o'tadi. Bolalarni tekinga o'qitib, darslik va qo'llanmalar yozib, nashr qiladi hamda ularni bolalarga tekinga tarqatadi, Turkistonning, Buxoro va Xivaning xaritasini tuzadi.

Behbudiy islom aqidalarini qattiq hurmat qilgani holda, dunyoviy fanlarsiz millatning taraqqiy etishi va kamol topishi mumkin emasligini qayta-qayta takidlaydi. «Ehtiyoji millat» maqolasida (1913) ochiqdan-ochiq dediki, «Boshqa millatlarga qaralsa, ko'ra olurga muntazam maktablari bor va ul maktablarda diniy ilm ustinda dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoga turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm-fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur». Bu g'oyat to'g'ri va dono fikrlardir.

Behbudiy zamona talabi bo'yicha ziyoli to'rt tilni bilishi shartligini ham aytadi: «... bugun bizlarga to'rt tilni tahlil va tahrir etuvchilar kerak, yani arabiy, rusiy, turkiy va forsiy» («Omilimiz yoinki murodimiz», 1913).

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913 yili nashr etgan «Samarqand» gazetasi (44 soni chiqarilib to'xtagan) va «Oyina» jurnali (1913) Turkistonda ijtimoiy fikrning taraqqiyotida juda katta ahamiyatga molik bo'ldi.

Behbudiyning o'zi arab, fors tillarini yaxshi bilgan, rus tilini tushungan, gaplasha olmagan. «Oyina»ni to'rt tilda – turkiy, forsiy, arab va rus tillarida chiqarmoqchi bo'lgan. «Ikki emas, to'rt til lozim» (1913) maqolasida lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. «Arabiy bilmasang din, ruscha bilmasang, dunyo qo'ldan ketar», deydi.

Behbudiyning qiziqish va bilim doirasi shu qadar keng ediki, u Turkistonning hamma jihatiga – siyosiy va ijtimoiy ahvoli, iqtisodiy va madaniy holati, buguni va ertasiga g'oyat qiziqib qaraydi, o'zini shu xalq, shu yurtning taqdiriga javobgar shaxslardan biri deb his qiladi.

Behbudiy siyosat bilan ham faol shug'ullanadi. Masalan, davlat dumasiga saylov masalasiga ham aralashadi.

Behbudiy na sotsialist va na kommunist. Uning dunyoqarashi kadetlarga yaqin edi.

O'zbek milliy adabiyoti ham Behbudiy ila boshlanib, yangi bir yo'lga kira boshladi. Behbudiy eng avvalo Turkistonni chor hukumati qo'ldan qutqarish g'oyasini elga targ'ib qiluvchilardan, aholining ezilganligini birinchi sezganlardan va bu hakda turli yo'llar ila xalqni istiqbol kurashiga chaqirganlardandir. Turkistonning uygonish davrini uch qismga – maorif, matbuot va jamiyatga bo'lib, shu davr rahbarlarini tekshira boshlasak, bu harakatlarning boshida Behbudiy turganini ko'ramiz.

U vaziyat taqozosi bilan sho'ro hukumati idoralarida ishlab, o'zining ezgu niyatlarini amalga oshirishga intildi. 1918 yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tuzildi va Behbudiy shu sho'roning maorif komissari etib tayinlandi. Ammo ko'p o'tmay, Buxoro amiri Olimxonning odamlari 1919 yil 25 martda qarshida Behbudiy va uning do'stlari - Mardonqul Shomuhammad o'g'li va Muhammadqul O'rinboy o'g'lini tutib olishib, zindonga tashlaydilar va qatl etadilar.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Behbudiyning oilasi haqida nimalar bilasiz?
- 1.2. Behbudiy dunyoqarishining o'zgarishiga nimalar sabab bo'ldi?
- 1.3. Uning chet ellarga bo'lgan sayohatlari nimasi bilan o'zaro farq qiladi?
- 1.4. Behbudiyning Ismoilbek Gasprali bilan munosabati haqidagi mulohazalaringiz?

2– asosiy masala bo'yicha dars maqsadi:

O'zbek adabiyotida drama janrining shakllanishi xususida mulohaza yuritib, «Padarkush» dramasi tahlil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Drama janrining o'zbek adabiyotidagi shakllanish zaminlari to'g'risida gapiradi.
- 2.2. «Padarkush» dramasi yaratilish tarixi haqida mulohaza bildiradi.
- 2.3. Dramada ko'tarilgan masalalarga baho berib, qahramonlariga tavsif beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Behbudiy – ilk o'zbek teatr nazariyachisi va birinchi amaliyotchisidir. Uning «Padarkush» asari, o'zi aytganidek, qayg'ulik pardada yozilgan.

«Padarkush» 1912 yili «Turon» gazetasida elon qilindi. Asar 1913 yili Samarqandda B.Gazarov va K.Sayanov bosmaxonasida alohida kitob holida bosildi.

Asarda o'sha davr Turkiston xalqi uchun eng dolzarb masala – marifatli bo'lish, yoshlarni o'qitish masalasi ko'tarilgan edi.

Pesa Behbudiyning yuragidagi dardni, orzu-armonini, idealini yuzaga chiqara olgan. Zero, pesadagi Ziyoli ko'p jihatdan Behbudiyning o'ziga o'xshab ketadi. Ziyoli faqat zamonaning ilg'or ilm-hunarini mukammal egallash orqali baxtsizlikdan qutulish va milliy mustaqillikka erishish mumkin, deb biladi, hamma narsani taraqqiy qilgan Ovrupo mezoni bilan o'lchaydi.

Asarda Behbudiy chorizm istibdodiga ishoralar qiladi va jaholat, axloqsizlik, qotillik illatining ildizini Rossiyaga olib borib taqaydi.

Dramaturg Toshmurod, Nor, Tangriqul, Davlat, Artun va Liza taqdirida Turkistonga kirib kelgan illatlarni ko'rsatib, xalqni ogoh bo'lishga, uyg'onishga, ko'zini ochishga va inqirozning oldini olishga davat etadi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Asar nima uchun «Padarkush» deb nomlangan?
- 2.2. Dramaning yaratilishi haqida nimalar bilasiz?
- 2.3. «Padarkush»da jadidchilik harakatining tasiri mavjudmi?
- 2.4. Liza obrazi orqali qanday muammolar ko'tarilgan?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA

Darsning maqsadi: So'fizodaning tarjimai holi va lirik merosi xususida tushunchalar hosil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. So'fizodaning yoshligi, ilm olishi, oilasi va pedagogik faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi.
- 1.2. So'fizoda she'riyatini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: So'fizodaning nashr qilingan she'rlaridan namunalar va shoir ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

1. So'fizodaning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. So'fizodaning chet el safarini tahlil qiling.
3. So'fizodaning pedagogik faoliyatiga tavsif bering.
4. Shoirning ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi she'rlarini sharhlang.
5. Shoirning lirik she'rlariga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. So'fizoda. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999
2. B. Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003
3. B. Qosimov. U. Dolimov. Ma'rifat darg'alari. Toshkent, 1990

Seminar mashg'ulot: BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI

1-topshiriq. Behbudiy publitsistikasiga baho berish.

- 1.1. Behbudiyning Turkiston matbuotidagi maqolalari asosan qanday muammolarga bag'ishlanganligini aniqlang.
- 1.2. Behbudiyning xorij matbuotida bosilgan maqolalariga izoh bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999 yil.
2. B.Qosimov. Maslakdoshlar. Toshkent, 1994 yil.
3. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999 yil.
4. Sh.Rizaev. Jadid dramasi. Toshkent, 2000 yil.

GLOSSARIY

Mavzu (Тема, Theme) (arabcha so'z bo'lib, "qo'yilgan, tartibga solingan" degan ma'noni bildiradi) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, ma'navits-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda ikki ma'noda: asarda tasvirlangan hayot materiali hamda badiiy asarda idrok etish uchun qo'yilgan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmui. Asarda qalamga olingan voqyelik – hayot materialini "mavzu" deyish, e'tibor qaratilgan, mushohada yuritish uchun qo'yilgan masalalarni "mavzu" emas, "muammo", "problema" deyish to'g'riroq bo'ladi. Chunki har qanday chinakam badiiy asar ijodkorning o'z davri, o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitga munosabati, u xususidagi o'y-kechinmalari, tashvishi, iztirobi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Ijodkor shaxs boshqalardan ko'ra mavjud hayot tartiblari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida ko'proq o'ylaydi, tashvish chekadi. Tabiatidagi ana shu xususiyat, fazilat uni asar (she'r, hikoya, roman, doston, drama, komediya, tragediya) bitishga undaydi. Asl asar ijodkordagi ichki zarurat – "ehtijoj farzandi" (A.Oripov) sifatida yuzaga keladi. Ijodkor o'zini o'ylantirgan muammolarni badiiy idrok etish uchun hayot voqyeligidan material tanlab, uni tasvirlaydi.

Poetika (Поэтика, Poetic) (yunoncha poetike techne – ijod san'ati) – keng ma'noda adabiyot nazariyasi, hozir ko'proq adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi ma'nosida qo'llanadi, adabiy asar haqidagi ta'limot.

Qofiya (Рифма, Rhyme) arabcha so'z bo'lib, misra oxiridagi so'zlarning bir-biriga mos bo'lishidir. She'rda misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z, ba'zan so'z birikmalari ohangdosh bo'lib keladi. Aniqrog'i, ularning tarkibidagi tovushlar guruhi ohangdoshlik hosil qiladi. Qofiya ritmik jihatdan misrani ta'kidlash orqali she'r ritmining his qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. She'r o'qilayotganida qofiya misraning tugaganidan darak beradi. She'riyatda qofiyaning: to'liq va to'liqsiz qofiya, unli tovushlar ohangdoshligiga asoslangan assonans qofiya, undosh ohangdoshligiga asoslangan dissonans qofiya, rus she'riyatida qofiyalanayotgan so'zlarning ochiq bo'g'in bilan tugasa – jenskaya rifma, yopiq bo'g'in bilan tamom bo'lsa – mujskaya rifma kabi qo'llanishlari mavjud. O'zbek she'riyatida qofiyadosh so'zlardagi tovushlar qay darajadi mosligi jihatidan och (to'liqsiz) va to'q (to'liq) qofiyalar ajratiladi. Misralardagi so'zlarning tovush tarkibi to'la mos (masalan: savdo – g'avg'o – paydo – shaydo, laylo – Ra'no kabi) kelsa, to'q (to'liq) qofiya deyiladi. Och (to'liqsiz) qofiyalarda qofiyadosh so'zlarning tovush tarkibi qisman (masalan: dahriy – qahridan, titrab - guldirak) mos keladi.

MAVZU: ABDULLA AVLONIY

Mavzu rejasi:

1. Hayot yo'li va shariyati
2. Dramaturgiya va publitsistikasi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Ilm tahsili va tirikchilik tashvishlari, pedagogik faoliyati, ijtimoiy faoliyati, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, shariyati, dramaturgiyasi, publitsistikasi

1 – asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Avloniyning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati to'g'risida malumot berish hamda sherlarini tahlil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Avloniyning tarjimai holini so'zlab beradi.
- 1.2. Avloniyning pedagogik faoliyatini baholaydi.
- 1.3. Shoir sherlarini tahlil qiladi.

1- asosiy masalaning bayoni:

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi oilasida tug'ildi. Otasi Miravlon asli qo'qonlik bo'lib, bo'zchilik bilan shug'ullangan. Abdulla 1885 yili O'qchidagi eski maktabga kirib, xat-savodini chiqargan, 1890 yili esa shu mahalladagi madrasada tahsil ko'ra boshlagan. Lekin oilaviy sharoit taqozosi bilan Abdulla 1891 yildan boshlab faqat qish kunlari o'qib, boshqa fasllarda mardikorlik bilan shug'ullangan. Otasi vafotidan keyin, 22 yoshida oilaga boshliq bo'lib qolgan.

Avloniy 1894 yildan boshlab sher yozishga tutindi. XX asrning boshlaridan Orenburg, Qozon va Tiflisda chop etilgan gazeta va jurnallarni o'qishga kirishdi. 1904 yilda esa jadid to'dasiga azo bo'lib kirdi va Toshkentdagi dastlabki «usuli savtiya» maktabini ochgan Saidrasul Aziziyan o'rnak olib, Mirobodda shunday maktabni tashkil etdi.

U 1907 yildan boshlab, o'zida matbuot ishlariga rag'bat sezib, «Shuhrat» gazetasini chiqardi. Avloniy 1909 yili «Jamiyati xayriya» ochib, unga raislik qildi, 1913 yili esa «teatr ishlariga berilib», «Turon» teatr to'dasini tuzdi. Avloniy bu to'da tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar bilan 1914-1916 yillari Farg'ona vodiysida ijodiy safarda bo'ldi. Ayni vaqtda u «Nashriyot» shirkatini tashkil etib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochdi.

1917 yil fevral inqilobidan so'ng Avloniyning ijtimoiy faoliyati yanada qizg'in tus oldi, o'qituvchilar uyushmasini tuzib, «Turon» gazetasini chiqara boshladi. Avloniy «Ishtirokiyun» gazetasining tashkilotchilaridan va ilk muharrirlaridan biri bo'ldi, 1918 yilda eski shahar ijroiya qo'mitasining raisi, 1919 –1920 yillarda Afg'onistondagi sovet elchixonasida bosh konsul, 1920-1924 yillarda Turkbyuro va Markaziy qo'mitaning yo'llanmasi bilan turli mas'ul lavozimlarda xizmat qildi; 1924 – 1929 yillarda Lenin nomidagi harbiy maktabda, 1925–1934 yillarda esa O'rta Osiyo kommunistik universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlarida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. Abdulla Avloniy 1934 yil 25 avgustda Toshkentda vafot etgan.

Avloniyning ijodiy ilmiy faoliyati murakkab va ziddiyatlidir. O'zbek jadidchilik harakatining vakili sifatida adabiyotga kirib kelgan yozuvchi keyinchalik ijodiy hammaslamlari

safini tark etib, o'z hayotini kommunistik partiya va sovet davlatiga xizmat qilishga sarfladi. Shunga qaramay, uning ijodiy va marifatparvarlik faoliyati katta ahamiyatga molikdir.

Avloniyning adabiy merosi uch qismdan – sherlar, dramalar hamda axloq va odob masalalariga bag'ishlangan asarlardan iborat.

Avloniy garchand 1884 yildan sheriya sohasida qalam tebrata boshlagan bo'lsa ham, uning bu davrga oid mashqlari bizgacha etib kelmagan. Shoirning 1917 yilga qadar yozgan sheriya asarlari «Adabiyot yoxud Milliy sherlar» nomli olti qismdan iborat to'plamlaridan o'rin olgan (Bu to'plamlar 1909-1917 yillar oralig'ida alohida-alohida kitobchalar shaklida bosilgan). Avloniy bu sherlarida davrining muhim ijtimoiy masalalarini ko'targan, xalq ommasi o'rtasida tarqalgan giyohvandlik, qimorbozlik kabi illatlarni fosh etib, uni jaholat botqog'idan olib chiqish va marifat chashmalaridan bahramand etishni orzu qilgan.

Avloniy «Ahvoli olamdan bir namuna» sherida o'sha davrdagi ijtimoiy-maishiy hayot lavhalarini chizib, chunonchi, bunday yozgan:

Balo toshi yog'ildi boshimizga xobi g'aflatdan,
Mijoz sust o'lib avlod, millat tushdu quvvatdan.
Bilimsizlik tushurdi, yiqdi bizni qadru qimmatdan,
Jaholat quvdi bizni xonumonu molu sarvatdan...

Uning marifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan sherlari ayni paytda o'zida shoirning milliy-ozodlik taronalari marifatparvarlik g'oyalari bilan tutashgan holda yashaydi. Shoirning «Millat haykaliga xitob» sheri bu fikrning yorqin dalilidir.

Sher quyidagi ananaviy satrlar bilan boshlanadi:

Tur, ey millat, uyqudan hasratlashaylik,
Ilm uyiga kirmoqg'a suhbatlashaylik.
Yotma, millat, uxlama bedorlashaylik,
Milliy ishlar ishlarga bel bog'lashaylik.

Abdulla Avloniyning adabiy-ijtimoiy faoliyatida maktab va maorif ishlari g'oyat katta o'rinni egalladi. O'zining pedagogika sohasida izlanishlarini 1904 yili Mirobodda «usuli savtiya» maktabini ochishdan boshlagan Avloniy 1912 – 1917 yillar mobaynida shu tipdagi maktablar uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yohud axloq», «Maktab gulistoni» singari darsliklarni bir necha marotaba qayta nashr etdi. «Birinchi muallim» «avvalgi sinf shogirdlari»ga mo'ljallangan darslik bo'lib, muallif birinchi qismda o'qituvchini alifbo tartibidagi arab harflari va ularning yozilishi bilan tanishtirsa, ikkinchi asosiy qismda o'qituvchini yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o'rgatuvchi didaktik hikoyalar berilgan.

«Ikkinchi muallim» - yuqoridagi darslikning davomi «Alifbodan so'ng o'qitmoq uchun» yozilgan bu darslik axloqiy hikoyalar va ibratli sherlardan tashkil topgan. «Maktab gulistoni» va «Turkiy Guliston yohud axloq» asarlari «usuli savtiya» maktablarining yuqori sinflari uchun mo'ljallangan bo'lib, ifodali va izohli o'qishda darslik – majmua vazifasini o'tagan.

«Maktab guliston»ida o'quvchiga taqdim etilgan matnlar ifodali o'qishning turli shakllariga moslab berilgan.

«Turkiy guliston» axloq muammolari, mezonlari va turlari muayyan tasnif asosida o'zbek tilida ilk bor bayon qilingan risola bo'lib, unda muallifning marifatparvarlik qarashlari izchil bir tizim shaklini olgan.

Avloniy o'zbek jadid adabiyotidagi marifatparvarlik g'oyalarini shoir va dramaturg sifatidagina emas, balki pedagog sifatida ham keng xalq ommasiga olib kiradi. Shu manoda u jadid birodarlarining xalqni marifatlashtirish dasturiga amaliy ishlar bilan ham munosib hissa qo'shdi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Shoirning pedagogik faoliyatiga qanday baho berasiz?
- 1.2. Sheriyatidagi etakchi g'oyalar nimadan iborat?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Avloniy dramalarini tahlil qilish va publitsistikasi haqida talabalarda tasavvur uyg'otish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Adibning dramalari haqida umumiy malumot beradi.
- 2.2. «Pinak», «Biz va siz» dramalarini tahlil qiladi.
- 2.3. Avloniy publitsistikasiga baho beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Yuqorida aytib o'tilgandek, Avloniy 1913 yildayoq birinchi o'zbek teart to'dasi «Turkiston» («Turon»)ga soldi. O'zi «Turkiston» to'dasi uchun «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Ikki sevgi», «Biz va siz», «Portugaliya inqilobi» singari pesalar yozdi. Ozarbayjon va tatar dramaturglarining «qotili karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor oila», «Badbaxt kelin», «Hur-hur», «Jaholat», «O'liklar» singari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. «Advokatlik osonmi?» asarida Avloniy faqat oliy malumotli huquqshunoslargina emas, balki 10-yillardagi Turkistonda umuman epaqali qonunlarning, huquqiy munosabatlarining yo'qligi, xalqning huquq masalalarida savodi kamligidan kulgan.

Bir pardali «Pinak» (1915) nomli kulgi ham Turkiston xalqlari turmushidan olingan. Avloniy ko'knori va qimorbozlar ustidan engil kulgu uyg'otish niyatida Tursun va Fo'lod ismli yoshi oltmishni qoralagan ikki kishining kayfdagi holatlarini tasvirlaydi.

Avloniy dramaturg sifatida o'z davri uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan asarlar muallifidir. Uning sahna, shuningdek, sheri asarlarini badiiy barkamol deb bo'lmaydi. Jadid adabiyotining vazifasi jamiyatning o'sha yillaridan holati, kishilarning o'sha yillardagi ruhiyatini va xatti-harakatlarida ijobiy o'zgarish yasash, xalq va jamiyatni madaniy taraqqiyot bosqichiga olib chiqish edi. Avloniyning sahna asarlari ham ana shu qutlug' ishga xizmat qilgan.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Avloniy dramalari uchun xos bo'lgan umumiy xususiyat nimalardan iborat?
- 2.2. Nima uchun drama «Advokatlik osonmi?» deb ataladi?
- 2.3. «Pinak» dramasida qanday muammolar ko'tarilgan?
- 2.4. «Kim nimani yaxshi ko'rar» maqolasida qanday masalalar ko'tarilgan?
- 2.5. «Madaniyat to'lqinlari» maqolasini qanday baholaysiz?

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: AVLONIYNING ADABIY MEROSI

Darsning maqsadi: Avloniyning adabiy merosi, xususan, she'riyati haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Avloniy she'rlarini tahlil qiladi.
- 1.2. Adib dramalariga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Abdulla Avloniyning nashr qilingan kitoblari, ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

1. Avloniy tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Avloniyning ijtimoiy faoliyati to'g'risida gapiring.
3. Shoir she'riyatini ma'lum bir guruhlariga ajratib o'rganing.
4. Adib dramalariga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
5. Avloniy dramalarida ko'tarilgan masalarga izoh bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. A. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jidlik, Toshkent, 1998 yil.
2. A. Avloniy. O'son millat. Toshkent, 1993 yil.
3. B. Qosimov. Inqilobiy sheriya sahifalari. Toshkent, 1977 yil.
4. B. Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

Mustaqil ish topshirig'i:

AVLONIYNING ADABIY MEROSI

1-topshiriq. Avloniy publitsistikasiga baho berish.

- 1.1. Avloniyning matbuot va maorif masalalariga bag'ishlangan maqolalarini tahlil qiling.
- 1.2. Adibning til, adabiyot va san'at muammolari haqidagi maqolalarining mohiyati nimalardan iborat ekanligiga izoh bering.

2-topshiriq. Avloniyning pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

- 2.1. Avloniy darsliklariga xos bo'lgan asosiy belgilarni ko'rsating.
- 2.2. Avloniyning yangi maktablar ochish borasidagi faoliyatiga baho bering.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003 yil.
2. A. Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jidlik, Toshkent, 1998 yil.
3. A.Avloniy. O'son millat. Toshkent, 1993 yil.
4. B.Qosimov. Inqilobiy shariat sahifalari. Toshkent, 1977 yil.

MAVZU: SIDQIY XONDAYLIQIY

Mavzu rejasi:

1. Shoirning hayot yo'li
2. Sidqiyning adabiy merosi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari:

Ilm va turli kasb-hunar o'rganishi, ananaviy ishqiy sherlari, ijtimoiy lirikasi, «Rusiya inqilobi» o'zbek adabiyotidagi birinchi yirik epik asar ekanligi, talimiy-axloqiy hikoyalari, sheriyoqvoqeiyo hikoyalari, tarjimalari

1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Sidqiyning oilasi, ilm o'rganishi va ijodining shakllanishi to'g'risida tushuncha berish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Sidqiy tug'ilgan oila va uning ilm o'rganishi haqida so'zlab beradi.
- 1.2. Uning turli kasb-hunar egallashga bo'lgan intilishiga izoh beradi.
- 1.3. Shoir tabiatidagi tikso'zlik, haqtalablikning ijodiga bo'lgan tasiriga baho beradi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Sirojiddin Sidqiy 1884 yil Toshkent yaqinidagi Xondaqlik qishlog'ida tug'ildi. Otasi Mirzohidoxun o'qimishli kishilardan bo'lgan. Shoir o'z otasining «kamdastroq», «bechoraholroq» bo'lganligidan xabar beradi.

Olti-etti yoshlarida Sirojiddinning savodi chiqadi. Xati ravon bo'lib, qisqa muddatda sheriklari orasidan ko'zga tashlanib qoladi. 1909 yilda Toshkentga kelib, Kesakqo'rg'on mahallasidagi Mardrasai Rahmatullohda Shomuhiddin ohund qo'lida arab tili sarf (morfologiya) u nahv (sintaksis)ini o'rganadi. Hattotlikka muhabbat qo'yib, zamonasining mashhur kotibi Muhammad Shohmurodga shogird tushadi. So'ngra Farg'ona vodiysiga borib, Mirzo Hoshim Xo'jandiydan suls, taliq ruq'a, yoqutiyo, ubaydiy, lohuriyo kabi xatlarni o'rganadi. Ayni paytda sher mashq qila boshlaydi. Tarjima bilan shug'ullanadi. Mo'minjon Muhammadjonovning malum qilishicha, Sidqiy «Ko'kaldosh» madrasasida Miskin va Xislatlar bilan bir vaqtda o'qigan. So'ng Sidqiy «Beklarbegi»da tahsil olgan. Sidqiy o'z tarjimai holida Xislatning nomini alohida ehtirom bilan tilga oladi, undan sher ilmini o'rganganini aytadi. Sidqiyning shoir sifatida shakllanishida Karimbek Kamiyning xizmati katta bo'ldi.

Sidqiyning ilk sherlari muhabbat mavzusida yozilgan va bularni (2 sher kitobi) u «Shavkat» taxallusi bilan yozdi. 1913 yilda «Tuhfai Shavkat», 1914 yilda esa «Savg'oti Shavkat» kitoblarini nashr ettirdi. Shoir bir qator sherlariga «Shevan» (nola, fig'on) taxallusini ham qo'llagan. Lekin keyinchalik barcha asarlarini Sidqiy taxallusi bilan chop etdi. Hatto eski g'azallarini ham tahrir qilib, «Sidqiy»ga o'zgartirgan, devonining nomini «Devoni Sidqiy» atagan edi.

Shoirning o'zi tabiatan mehnatkash, hunar va kasb o'rganishga moyil va mohir bir kishi edi. U xushxatlikdan tashqari tosh yo'nib, unga turli ishlov berish, xat yozish, turli bezaklar tushirish, suratlar ishlash, muhr «qazish»ni o'rniga qo'ygan. U hushtak yasash, qush ovlash, parvarish qilishga ham usta bo'lgan. Asalari boqqan.

Adabiyotga oshiqona sherlar bilan kirib kelgan shoir o'z hayoti davomida janri, mazmun yo'nalishi, maqsad-mohiyatiga ko'ra xilma-xil asarlar yozdi. U badiiy ijodga badiiy

lazzatgina oladigan bir go'zallik timsoli deb qaramadi. Uni hayot va kurash uchun vosita ham deb bildi. Shuning uchun hajviyot shoir ijodidan keng o'rin oldi.

Sidqiy tabiatan tikso'z, hozirjavob, haqtalab, adolatsizlik bilan hech bir chiqisha olmaydigan, ayniqsa, tekinxo'rlik, tama'girlik va poraxo'rlikni insonlikka buyuk ofat biluvchi g'oyat pokiza vijdon egasi edi. U buning jabrini ham ko'p ko'rdi.

Chunonchi, uning O'nqo'rg'on qozisi haqida bir voqeiy hikoyasi bor. Bu sheriyl hikoya elon qilingach, shoirning boshi baloga qoladi va 2 yil Farg'onada qochib yurishga majbur bo'ladi.

Darhaqiqat shoirning «Yuz ming osafki, charx mani qildi bevatan» deb boshlanadigan musaddasi vatandan ayrilgan paytdagi yuzaga kelgan ijod namunalaridan biridir.

Bu hol sho'rolar zamonida yanada kuchaydi. Inqilobdan oldin tinimsiz ijod qilgani, o'nlab sheriyl, nasriyl asarlar, hajviylar, tarjima yozib nashr ettirgani holda sovet davrida durustroq bir asar yozmaganligini shoir quyidagicha izohlaydi:

«Barchaga mashhurdirki, har bir mol xaridor birla rivoj topadigi kabi so'z ham haridor ko'plugi birlan va talabgor jo'shishi ilan taraqqiy etar. So'z haridori o'lmag'ondurki, hozirgi asrimizda qadimgi shoirlarimizning amsolini ko'rmaydurmiz.

Bechora Sidqiylning oz sher aytmog'iga bois so'z xaridorining yo'qligidir».

Shoirning oilaviyl ahvoli rohatda kechgan emas. O'g'illari Fathulkarim va Omonullolarning ketma-ket vafoti Sidqiylning qaddini tamom bo'qib qo'ydi. Sidqiyl 1934 yili o'z tug'ilib o'sgan qishlog'ida vafot etdi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Sidqiyl yashagan oila va uning ilm o'rganishi to'g'risida nimalar bilasiz?
- 1.2. Shoir qaysi kasb – hunarlarni mukammal egallagan?
- 1.3. Shoirning tabiati (xarakteri)ga qanday baho berish mumkin?
- 1.4. Nima uchun shoir 2 yil Farg'onada qochib yurishga majbur bo'ldi?

2– asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Shoirning adabiy merosi bilan talabalarni tanishtirish va ijodidan namunalar tahlil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Shoirning ishqiy lirikasi xususida gapiradi.
- 2.2. Sidqiylning ijtimoiyl lirikasini tahlil qiladi.
- 2.3. Sidqiylning tarjimalari va nasriyl–asarlariga baho beradi.

2– asosiy masalaning bayoni:

Shoirning lirik sherlari shuni ko'rsatadiki, u mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylilik singari eng yaxshi ananalarini davom ettiradi. U buyuk Navoiylga alohida ixlos va muhabbat bilan qaraydi. Lekin XX asrning shoiri bo'lganligidan unga demokratik ruh, marifatparvarlik qarashlari har narsadan yaqin turadi. Bu hol uni Muqimiy va Furqat izidan borishga undaydi.

Shoir poetik merosining salmoqli qismini hajviylot va ijtimoiyl-siyosiy sherlar tashkil qiladi. Hajviyl asarlarining aksariyati voqeiy va deyarli hammasi poraxo'r qozilar, tamagir amaldorlar, riyokor ruhoniylar haqida, ijtimoiyl-siyosiy sherlari esa davrning muhim voqealariga bag'ishlangan. Masalan, «Muhoraba» sheri birinchi jahon urushi haqida Mardikorlik voqealariga bag'ishlab «Rabo(t)chilar namoyishi» (1917) asarini yaratdi. Fevral inqilobidan keyin mardikorlar o'z yurtlariga qayta boshladilar. Sidqiyl «Rabo(t)chilar kelishi» asarini shu voqeaga bag'ishladi.

Mardikorlik voqealari mavzusi Sidqiylning «Rusiya inqilobi» dostonida mahsus bob bilan davom etgan. U inqilobiy voqealarni keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asar. Doston hajmi 1502 satrni tashkil qiladi. Shundan 72 satri fors-tojik tilida, qolgan matni (1430 satr) o'zbek tilida yozilgan. Doston muqaddima va xulosadan tashqari 13 bobdan tashkil topgan.

Fevraldagi inqilobiy voqealar tasviri, asosan, birinchi bobda berilgan. Voqealar asarda kunma-kun beriladi. 23 fevraldagi xaloyiqning «mojaro»sini Sidqiy mamlakatni larzaga keltirgan ochlik vayronagarchilikdan deb biladi.

«Maqbul qurbonlar» bobida shoir Rossiya ozodlik kurashi tarixiga nazar tashlaydi va rus inqilobiy tarixi sahifalarini 1772 yildagi Pugachyov qo'zg'olonidan boshlaydi. Shoir inqilobning sabablarini mustamlakalardagi milliy zulm bilan bog'laydi va 1916 yildagi Turkiston voqealarini misol qilib keltiradi. Muallif fikricha, Turkistondagi qo'zg'alishlarga asosiy sabab – nohaqlik va zulmning kuchayishi bo'ldi. Xuddi shunday sharoitda podshoh o'lka ahlini mardikorlikka olish haqida farmon berdi. Avvalo, shoir mardikorlikka olishning o'zini «Na bor erdi farmon aro muhlati, na bor erdi anda haqi-xikmati», deya g'ayri qonuniylik deb biladi. Sidqiy chor hukumatining halokatini ijtimoiy asoslardan kelib chiqib ko'rsatishga harakat qiladi.

Sidqiy arab va fors tillarini yaxshi bilaganligi sababli tarjima bilan ham jiddiy shug'ullangan. Masalan, u mashhur «Ming bir kecha»ni, Sadiyning, «Bo'ston»ini, «Hikoyai latifa», «Bahrom va Malikai Gulandom», «Ajoyib ul – mahluqot», «O'g'ri va qozi» kabi bir qator nasriy asarlarni tarjima qildi.

Uning tarjimalari orasida elon qilinmaganlari ham ko'p. «Holati Sidqiy»da og'ir inqilob yillarida sahobalarning janglari haqida yozilgan bir kitobini «Shavkat us salom tarjimai «Futuh al-Shom» nomi bilan tarjima qilganini yozgan edi.

Sidqiy «Tazkirai Imomi Azam», «Sad irshodi mulla Sidqiy Xondaliqiy», «Mezoni shariat», «Zarbulmasali Sidqiy» nomli nasriy asarlar ham yozdi.

Adib nasriy merosining salmoqli qismini diniy–axloqiy asarlar tashkil qiladi. «Tarixi Imomi Azam» asari xuddi shunday mavzuda yaratilgandir. Asar Imomi Azam qissasidan tashqari «qiyomatnoma», «Roznomai Muso alayhissalom», «Me'rojnoma», «Vasiyatnoma», «Odob ul muslimin», «Eru ko'k xalq bo'lg'oni», «Xotun olmoqlik fazilati» va hokazo qismlardan iborat.

«Mezoni shariat » («Sharoit tarozusi») asari 1915 yilda chop etilgan. Sidqiy shariat mezonlarini ommabop qilib berdi, qulay dastur shakliga keltirdi.

«Sad irshodi Mullo Sidqiy Xondaliqiy» («Mullo Sidqiy Xondaliqiyning ikki yuz nasihati») Sharqda keng tarqalgan pand–o'gitlar, maqollar, hikmatli so'zlar ko'rinishidagi qaydlardan iborat.

1924 yil shoir «Holoti Sidqiy»ni yozdi. U shoirning o'sha paytgacha bo'lgan tarjimai holini, adabiy faoliyatini o'z qalami bilan yoritgani uchun ishonchli manba sifatida ilmiy, tarixiy, marifiy jihatdan benihoya muhimdir.

«Zarbulmasali Sidqiy» 1932 yilda yozilgan bo'lib, 500 dan ortiq maqol, matal va xalq naqlariga qo'yilgan savol va ularga to'g'ri, kinoya hamda kesatq manolaridagi izoh yoki javoblardan iborat.

Sidqiy nasriy asarlarining mavzu ko'lamini keng va rang–barangdir. Yuksak axloq mezonlari va ilm–marifatga davat Sidqiyning shariatidagi kabi nasrida ham o'zak g'oyalardan hisoblanadi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Muhabbat mavzusidagi sherlar shoir ijodida qanday o'rin tutadi?
- 2.2. Sidqiyning hajviy sherlarida qanday muammolar ko'tarilgan?
- 2.3. Sidqiy ijodida nasriy asarlar qanday o'rin tutadi?
- 2.4. «Zarbulmasali Sidqiy»ning bugungi kundagi ahamiyati haqida nimalar deyish mumkin?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA

Darsning maqsadi: So'fizodaning tarjimai holi va lirik merosi xususida tushunchalar hosil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.3. So'fizodaning yoshligi, ilm olishi, oilasi va pedagogik faoliyati to'g'risida ma'lumot beradi.
- 1.4. So'fizoda she'riyatini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: So'fizodaning nashr qilingan she'rlaridan namunalar va shoir ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar

Ishni bajarish tartibi:

6. So'fizodaning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
7. So'fizodaning chet el safarini tahlil qiling.
8. So'fizodaning pedagogik faoliyatiga tavsif bering.
9. Shoirning ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi she'rlarini sharhlang.
10. Shoirning lirik she'rlariga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. So'fizoda. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999
2. B. Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003
3. B. Qosimov. U. Dolimov. Ma'rifat darg'alari. Toshkent, 1990

Mustaqil ish topshirig'i:
ANBAR OTIN LIRIKASI

1-topshiriq. Anbar otinning lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Shoiraning ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Yuqori tabaqa vakillarining shoira hajviyotidagi tasviriga baho bering.

2-topshiriq. «Qoralar falsafasi» asarini tahlil qilish.

- 2.1. «Qoralar falsafasi» asarining mohiyati nimalardan iborat ekanligiga tavsif bering.
- 2.2. Asarda qanaqa ijtimoiy-siyosiy, falsafiy masalalar xususida fikr yuritilganligini aniqlang.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Anbar Otin. Sherlar. Risola. Toshkent, 1970 yil.
2. G'.Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975 yil.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 5-jild, Toshkent, 1980 yil.

GLOSSARIY

Syujet – (Сюжет, Plot) (fransuzcha sujet – predmet, asosga qo'yilgan nasa) – badiiy shaklning enng muhim unsurlaridan biri, asardagi bir-biri bilan uzviy bog'liq voqyealar tizimi. Lirik asarlarda o'y-fikr, his-kechinmalar rivoji syujetdir. Adabiyotshunoslikda syujetlar ikkiga: voqyeaband va voqyeaband bo'lmagan syujetga ajratiladi. Hikoyada bitta voqyeaga e'tibor qaratiladi va unda qisaa roman, drama, tragediya, komediya bir necha voqyea naql qilinadi hamda ular ta'sirida qahramon xarakteri, dunyoqarashidagi o'sish-o'zgarishlar jarayoni ko'rsatiladi. Syujet birlamchi funksiyasi asarda diqqat markaziga qo'yilgan muammoni badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materiaini uyushtirib berishdir. Syujet personajlarning harakati, faoliyati, o'z maqsadi yo'lidagi intilishi, kurashidan tarkib topadi. Syujetning ikki tipi: tashqi harakat dinamikasiga asoslangan hamda ichki harakat dinamikasiga asoslangan turi mavjud. Voqyealarning o'zaro munosabatiga ko'ra syujet xronikali va konsetrik turlarga bo'linadi.

Shakl va mazmun (Форма и содержания, Form and Content) - voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

She'r (Стихотворение, Поем) – muayyan o'lhovdagi ritmik nutq. Alisher Navoiyning tazkirachilik an'anasini yurtimizda mavaffaqiyat bilan davom ettirgan Mutrobiy Samarqandiy (1556 – 1630 yoki 1650)ning qayd etishicha, “she'r” arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi “topmoq va bilmoq”dir. Shu jihatdan shoirni “biluvchi va topuvchi” deb ataydilar. Chunki shoir boshqalar topa olmaydigan sara so'zlarni topadi va ular tizimiga o'zgalar eplay olmaydigan darajadagi shaklni beradi. Istiloh sifatida “she'r” so'zi ma'no, vazn va qofiyaning hamohang kelishini anglatadi. Chunki yaratuvchisi ularni ana shu bir-biriga bog'liqlik holatda

shakllantiradi” (Samarqandiy M. Tazkirat ush shuaro. – “Ilohiy arsh ostidagi xazinalar kaliti shoirlarning tilidir” mazmuniga ko‘ra – dong taratgan so‘zamollar va oliy maqomli shoirlarning sinovdan o‘tgan so‘zlari va ma‘qul gaplaridir) (O‘sha manba. 12-bet).

MAVZU: AVAZ O‘TAR O‘G‘LI

Mavzu rejasi:

1. Avaz O‘tar o‘g‘li lirikasi
2. Shoir ijodida erkparvarlik va marifatparvarlik g‘oyalarining ifodalanishi

Mavzuning asosiy tayanch tushunchalari

Yoshlik yillari va ilm tahsili, shariyati, ananaviy sherlari, ruboiylari, qitalari, ijodida «Faloniy» turkumi, sherlarida erkparvarlik va marifatparvarlik g‘oyalari

1 – asosiy masala bo‘yicha darsning maqsadi:

Avaz O‘tar o‘g‘li shariyati to‘g‘risida tushuncha berish va ijodidan namunalar tahlil qilish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1. Avaz O‘tar o‘g‘lining hayoti va faoliyati to‘g‘risida so‘zlaydi.
- 1.2. Shoir ijodining taraqqiyot bosqichlari haqida gapirib, ularga izoh beradi.
- 1.3. Shoir ijodidan namunalar tahlil qiladi.

1 – asosiy masalaning bayoni:

Avaz O‘tar o‘g‘li 1884 yil 15 avgustda Xiva shahrida hunarmand oilasida tug‘ildi. Avazning otasi Polvonniyoz O‘tar Gadoyniyoz O‘g‘li bo‘lib, u sartaroshlik kasbi bilan shug‘ullanar edi. Xalq o‘rtasida usta O‘tar nomi bilan shuhrat qozongan bu kishi sanat adabiyot havaskori bo‘lib, zamonasining ilg‘or, ilm - marifatli kishilari bilan yaqin aloqada bo‘lgan edi. Uning uyida, ko‘pincha, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mutrib, Xonaharobiy, Bayoniy va boshqa shoirlar ishtirokida adabiy majlislar o‘tkazilar, qizg‘in ijodiy suhbatlar uyushtiriladi. Bu o‘tirishlarda, tabiiyki, yosh Avaz ham ishtirok etgan.

Avaz 8 yoshga kirgach, Usta O‘tar uni o‘qishga berdi. Ziyrak Avaz muvaffaqiyat bilan o‘qidi. U 11 yoshida boshlang‘ich maktabni bitirib, Xiva madrasalaridan biriga kirdi. Avazning madrasadagi o‘qishi ham muvaffaqiyatli o‘tdi. Uning sanata va adabiyotga qiziqishi zo‘r bo‘lib, bu sohalarni chuqur o‘rgandi.

Malumotlarga qaraganda, Avaz O‘tar 14 yoshlaridayoq sher yozishga kirishgan, 18 yoshlarida esa xalq o‘rtasida shoir sifatida tanilgan.

Shoir bosib o‘tgan ijodiy yo‘lni quyidagi uch davrga ajratish mumkin.

1. Avaz O‘tar ijodining ilk davri. Bu davr XIX asrning oxirlaridan 1905- yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu vaqtlarda Avaz O‘tar yosh shoir sifatida izlanish, o‘rganish davrini boshdan kechirdi.

2. Avaz O‘tarning 1905 yildan 1914 yilgacha bo‘lgan davrdagi ijodi. Bu davrda Avaz O‘tar klassik adabiyotning eng yaxshi an‘analarini davom ettiruvchi shoir sifatida kamol topa boshladi.

3. Avaz O‘tarning 1914 yildan umrining oxirigacha bo‘lgan davridagi ijodi. Bu davrda Avaz O‘tar ijodida ma‘rifatparvarlik va ozodlik g‘oyalari ilgari suriladi.

Avaz O'tar o'g'li she'riyati mazmunan boy, shaklan rang-barangdir. Avaz O'tar she'riyatining asosiy mavzusi muhabbatdir. Bu mavzu orqali shoir chuqur insoniy his-tuyg'ularni tarannum etdi. Muhabbat, sadoqat, samimiyat, vafodorlik kabi insoniy fazilatlarni kuylash Avaz O'tar she'riyatining etakchi g'oyaviy asosini tashkil etadi.

Avaz O'tar she'riyatida ruboiy va qit'alar alohida o'rin tutadi. qit'a va ruboiylar ishqiy, axloqiy, falsafiy mavzulardan tashqari hajviy yo'nalish ham ko'p uchraydi.

Avaz O'tarning faqat qit'a va ruboiylaridagina emas, balki uning lirik she'rlarida – g'azallarida ham bunday satiralar bor. Masalan, «Shayx», «Ikki shayx» she'rlari din ahllarini fosh qilishga qaratilgan bo'lib, ular hajviy ahamiyatga molikdir. Lekin hajviy mavzu, ayniqsa, uning qit'a va ruboiylarida keng ishlangan.

Avaz O'tar she'riyatida tekinxo'r, munofiq din ahllarini – riyokor shayxlarni tanqid qilish katta o'rin tutadi. Shuningdek, shoir jamiyat illatlarini ham izchillik bilan fosh etadi, xalq manfaati uchun zararli bo'lgan hodisalarni tanqid qiladi, mehnatkashlar ustidan zulm o'tkazayotganlarga la'natlar o'qiydi.

Yomonlarning, yomoni andoq odamdur jahon ichra,
Yiroq o'lg'usi to o'lguncha insof – diyonatdin.
Olib mazlumlar molini yuz ming zulmu kin birla,
qilur behonumon xavf etmayin yavmi qiyomatdin.

Avaz O'tar qitalari ichida «Faloniy» so'zi bilan boshlanadigan hajviy turkum uchraydi. Ko'pincha, to'rt va olti misradan iborat bo'lgan bu sheri parchalarni shoir din ahllariga, boylarga, amaldorlarga va badfel odamlarga bag'ishlaydi. Masalan, bu turkumga kirgan qitalarning birida Avaz O'tar boylar va ularning fel-atvorini hajv ostiga oladi.

Falon bozilga bo'lsun borcha doshnom uzra doshnom.
Ki faqir ahlig'a javr aylab, g'aniylarga qilur inom.
Tanaum ahlig'a nemat qo'yub, och ahliga bermas.
Xush erdi topsa andok elni umri muddati itmom.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Avazning otasi, yani Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'lining adabiyotga va sanatkaga bo'lgan munosabati qanday edi?
- 1.2. Avazning ilk ijodi qaysi yillardan boshlangan?
- 1.3. Avaz O'tar ijodining ilk davri haqida nimalar bilasiz?

2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Shoir ijodida erkparvarlik va marifatparvarlik g'oyalarining paydo bo'lishi zaminlarini izohlaydi va shunday ruhdagi asarlarini tahlil qiladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Avaz O'tar o'g'lining marifatparvarlik ruhidagi asarlari haqida gapiradi.
- 2.2. Shoirning «Til», «Maktab» kabi g'azallarini tahlil qiladi.
- 2.3. «Xalq», «Ulamolarga xitob», «Fidoyi xalqim» kabi she'rlarini sharhlaydi.

2-asosiy masalaning bayoni:

1914 yildan keyin ro'y bergan muhim siyosiy va tarixiy hodisalar tasiri ostida Avaz O'tar ijodida xalqparvarlik g'oyalarini kuylash bilan birga, uning ijodida yangi marifatparvarlik va ozodlik g'oyalari ham paydo bo'ldi. Bu jihatdan Avaz O'tarning «Xalq», «Ulamolarga xitob», «Sipohiylarga», «Til», «Maktab», «Fidoyi xalqim», «Harb vahshiylariga», «Topar ekan qachon» kabi asarlari g'oyat muhimdir.

Shoirning marifatparvarlik ruhidagi sherlari ichida «Til» sheri alohida xususiyati bilan ajralib turadi. Avaz O'tar «Til» sherida chet tillarini o'rganish kerakligi to'g'risida yoshlarga xitob qilib, til o'rganing, «til foydali kondir», u orqali ilm xazinasiga ega bo'lasiz, deydi.

G'ayri tilni say qiling bilgali yoshlar,
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek.

Avaz O'tarning marifatparvarlik g'oyasini targ'ib qiluvchi sherlaridan yana biri «Maktab»dir. G'azal shaklidagi etti baytli bu sherida shoir maktabni ilm-madaniyat manbai sifatida ulug'laydi:

Dilu jon birla el maktab ocharga ijtixod etsin,
Nedinkim bizni g'am qaydidin ozod etgusi maktab,
Avaz, himmatini qil oliy ocharga emdi maktab kim,
Baloi jahlu nodonlikni barbod etgusi maktab.

Avaz O'tar 1914 yildan keyin siyosiy mavzuda ajoyib sherlar yozdi. Bu sherlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga taalluqli bo'lib, ularning deyarli hammasining ham g'oyaviy yo'nalishi o'tkirdir.

«Ulamolarga xitob» g'azali olti baytdan iborat bo'lib, u 1917 yilda yozilgan. Sher din ahllariga – ulamolarga xalq nomidan chiqarilgan aybnomadir.

«Xalq» g'azali 1917 yilda yozilgan etti baytli sher bo'lib, u o'zining g'oyaviy mohiyati jihatidan shoir siyosiy lirikasining yakunidir. Sher xalq «zulm tig'i bilan bag'ri pora - pora» bo'lganligi to'g'risidagi misralar bilan boshlanadi:

Yo'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,
Zulm tig'i birla bo'lgon bag'ri yuz ming pora xalq.

Sher xalqni uyg'otishga chaqirish bilan tugaydi. Avaz O'tar agar zamon ko'zini ochib uyg'onsa, xalq zulmdan, hurlikdan qutuladi, degan xulosa chiqaradi:

Ko'zlarin ohista – ohista agar ochsa zamon.
Ey Avaz, bo'lmas shuningdek barxo ovora xalq .

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Shoir ijodida marifatparvarlik ruhidagi asarlarning paydo bo'lish sabablari haqida nimalar deyish mumkin?
- 2.2. «Til» va «Maktab» sherlarida qanday masalalar ko'tarilgan?

AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI: ISHOQXON IBRAT

Darsning maqsadi: Ibratning ijodiy merosi to'g'risida tasavvur hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.4. Ibrat lirikasini tahlil qiladi.
- 1.5. Ibratning tarixshunoslik faoliyatiga baho beradi.
- 1.6. Ibratning ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyatini izohlaydi.

Kerakli jihozlar: Ibratning nashr qilingan kitoblari, «Tarixi Farg'ona» asari

Ishni bajarish tartibi:

6. Ibrat voyaga etgan oila va u yashayotgan ijtimoiy muhit haqida ma'lumot bering.
7. Ibratning ijodiy merosini batafsil o'rganing.
8. Shoirning lirik merosini tahlil qiling.
9. Ibratning tarixshunoslik yo'nalishidagi faoliyatiga tavsif bering.
10. Ibratning publitsistik va ilmiy faoliyatiga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

4. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003 yil.
5. Ishoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. Toshkent, 1991 yil.
6. Ibrat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1999 yil.

SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZUSI: AVAZ O'TAR O'G'LI LIRIKASI

Darsning maqsadi: Avaz O'tar o'g'lining lirik merosi, she'riyatining g'oyaviy-tematik doirasi haqida tushunchalar hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Avaz O'tar o'g'lining an'anaviy yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiladi.
- 1.2. Shoirning hajviy she'rlariga baho beradi.

Kerakli jihozlar: Avaz O'tar o'g'lining nashr qilingan kitoblari, shoir ijodi xususidagi ilmiy-ma'rifiy manbalar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Shoirning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.
2. Avaz O'tar o'g'li va Xorazm adabiy muhiti masalalari to'g'risida gapiring.
3. Shoirning «Xush keldingiz», «Oqibat», «Ne ajab» kabi lirik she'rlarini sharhlang.
4. Shoirning qit'alarini tahlil qiling.
5. Avaz O'tar o'g'lining «Faloni» turkumidagi she'rlariga baho bering.

Kerakli adabiyotlar:

1. Yu. Yunusov. Avaz. Toshkent, 1954.
2. V. Mirzaev. Avaz O'tar o'g'li. Toshkent, 1961.
3. G'. Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1987.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 5-tom. Toshkent, 1980.
5. B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2004.

AVAZ O'TAR O'G'LI LIRIKASI

1-topshiriq: Avaz O'tar o'g'lining lirik merosiga baho berish.

- 1.1. Shoirning an'anaviy yo'nalishdagi she'rlarini tahlil qiling.
- 1.2. Shoirning qit'alariga baho bering.
- 1.3. Shoirning ruboiylarini o'rganing.

Mazkur topshiriq savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Avaz O'tar o'g'li. Devon. Toshkent, 1976 yil.
2. N.Qobulov, V.Mo'minova, I.Haqqulov. Avaz va uning adabiy muhiti. Toshkent, 1987 yil.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

BAYONIY LIRIKASI

1-topshiriq. Bayoniyning lirik merosiga baho berish.

- 1.3. Nima uchun shoir she'riyati 3 bosqichga bo'lib o'rganilishiga izoh bering.
- 1.4. Bayoniy lirikasining birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari o'zaro qanday xususiyatlari bilan farqlanishini aniqlang.

2-topshiriq. Bayoniyning tarjimalari va tarixiy asarlarini tahlil qilish.

- 2.1. Bayoniyning tarixnavislik faoliyati haqida nimalar bilasiz? Izoh bering.
- 2.2. «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi haqida ma'lumotlarni tahlil qiling.
- 2.3. Bayoniyning tarjimonlik faoliyatini baholang.

Mazkur topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. Bayoniy. G'azallar. Toshkent, 1962 yil.
2. Bayoniy. «Shajarayi Xorazmshohiy». Toshkent, 1994 yil.
3. I. Adizova. El dardini kuylagan shariyat. Toshkent, 1988 yil.
4. N. Jumaxo'ja, I. Adizova. «So'zdan baqoliroq yodgor yo'qdur...». Toshkent, 1994 yil.

Ushbu topshiriqlar savollariga quyidagi adabiyotlardan javob topasiz:

1. B.Qosimov. Milliy uyg'onish. Toshkent, 2003.
2. Sh.Rizaev. Jadid dramasi. Toshkent, 1993.
3. Jamoa. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999.

GLOSSARIY

She'r tizimi (Стихотворение система, Verse system) – muayyan o'lchovga asoslangan she'riy vazn (o'lchov)lar tizimi, majmui. She'r tizimi she'r tuzilishining asosini, uning asosiy qonuniyatlarini belgilab beradi. She'r tizimi o'sha xalq tilining o'ziga xos

xususiyatlaridan kelib chiqadi. Barcha she'r tizimlarida bo'g'in asosiy o'lchov birligi sifatida olingan. Bo'g'in esa turli tillarda turlicha sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ega. Shundan kelib chiqqan holda, jahon xalqlari she'riyatida bo'g'inning miqdoriga asoslangan sillabik she'r tizimi, bo'g'inning urg'uli yoki urg'usizligiga asoslangan tonik she'r tizimi, bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligiga asoslangan metrik she'r tizimi, bo'g'inning baland yoki past talaffuz qilinishiga asoslangan melodik she'r tizimi mavjudligi qayd qilinadi. Bir yo'la ikki jihatni asos qilib olgan she'r tizimlari ham bor. (Sillabo – tonik she'r tizimi, turkiy (o'zbek) aruzi) She'r tizimi vaznga nisbatan keng qamrovli tushuncha. Vazn muayyan (konkret) she'rda namoyon bo'ladi.

Sarbast, verlibr (Верлибр, Unrhymed verse) – misralaridagi bo'g'inlar soni ham, ularning cho'ziq-qisqaligi ham, turoqlanishi va qofiylanishi tarkibi ham mutlaqo erkin she'r. Sarbast she'r XX asrdan o'zbek she'riyatida ommalashgan. Sarbast she'rda musiqiylik misralarda bo'g'inlar soni bir xilligi yoki tartibli qofiylanish asosida emas, balki so'z va tovush takrori, ritmik urg'ular hisobiga ta'minlanadi. Sarbast she'rda ohangdorlik boshqa she'riy janrlardan farqli holda, avvaldan maromiga solinmaydi, muayyan maromga mos kechinmalar ifodalanmaydi. Aksincha, sarbast she'rda fikr-tuyg'uga mos ohang so'zning ma'nosi asosida yuzaga keladi.

Sabab (Причина, Reason) arabcha so'z bo'lib, "chodirning arqoni" demakdir. Sabab – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritmik birlik. Harflarning qanday tartibda birikishiga ko'ra sababning ikki turi farqlanadi: sababi hafif (yoki yengil sabab) va sababi saqiyl (yoki og'ir sabab). Bitta mutaharrikka bir sokin harfning qo'shilishidan sababi hafif hosil bo'ladi. Masalan, "gul": mutaharrik (gu) + sokin (l), "ko'z", "qad". Ikkita mutaharrik harfning qo'shilishidan sababi saqiyl (talaffuzi sababi hafifga nisbatan qiyinroq ekani uchun shunday nomlangan) hosil bo'ladi: "gala", "sana" (mutaharrik (ga) + mutaharrik (na)).